

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 69 (1668), 2026-yil 9-aprel, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz.uz\_news



## TOSHKENT VILOYATI BARCHA SOHALARDA NAMUNALI HUDUDGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 8-aprel kuni Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyati poytaxtga yaqin joylashgan uchun hudud aholisi o'rinlari, daromad va turmush sharoiti ham Toshkent shahri darajasida bo'lishini kutishini ta'kidladi. Shu bois, viloyat tadbirkorlik va biznes muhitini yaxshilash, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida namuna bo'lishi lozimligi ko'rsatib o'tildi.

So'ngi yillarda hududda keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2024-2025-yillarda viloyat uchun 23 ta qaror qabul qilinib, ular doirasida byudjet, bank kreditlari va xorijiy investitsiyalar hisobidan yirik resurslar yo'naltirildi. Shu davrda 14 ta yangi sanoat zonasini tashkil etildi, 115 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi, 237 ta yangi eksporthi paydo bo'ldi va 300 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

O'tgan bir yil ichida Parkent, Ohangaron va Olmaliqda elektrotexnika, metallurgiya, farmatsevtika, to'qimachilik, mashinasozlik va tog'-kon sohalaridagi yirik loyihalar ishga tushirildi. Poytaxt ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan 87 ta korxonaga va yangi sanoat loyihalarini Toshkent viloyatiga ko'chirish ishlarini boshlandi, hozirgacha 15 dan ortiq to'qimachilik korxonasi ko'chib keldi va 4700 nafar fuqaro o'z yashash joyida ishlash boshladi.

Umuman, 2025-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 7,1 foizga, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6,6 foizga, qishloq xo'jaligi 4,2 foizga, xizmat ko'rsatish sohasi 15,2 foizga, qurilish-pudrat ishlari hajmi 9,8 foizga o'sdi.

2026-yilda viloyat iqtisodiyotini 9,1 foizga, sanoatni 8,8 foizga, xizmatlarni 17,2 foizga, qurilish ishlarini 15 foizga va qishloq xo'jaligini 6,6 foizga oshirish rejalashtirilgan. Buning uchun 6,2 milliard dollar investitsiya jalb etish va 2,8 milliard dollar eksportni ta'minlash mo'ljallangan.

Bundan buyon tumanlar salohiyatini sun'iy intellekt yordamida tahlildan o'tkazib, sanoat, investitsiya va eksport bo'yicha yangi imkoniyatlarini aniqlash zarurligi qayd etildi. Bu ishlar samarasini yanada oshirish uchun viloyatda Raqamli taraqqiyot — sun'iy intellekt markazini ochish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Viloyatda sanoatni boshqarish bo'yicha yangi tizim joriy etilayotgani, hokimning sanoat masalalari bo'yicha o'rinbosariga investitsiya va eksportni ko'paytirish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq samaradorlik ko'rsatkichlari belgilanishi ma'lum qilindi.

Joriy yilda 883 ta mahallani kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, 84,7 ming aholini doimiy ishga joylashtirish, 37 ming norasmiy ish o'rini

legallashtirish va 13,3 ming ishsiz fuqaroni kasbga o'qitish vazifasi qo'yildi.

Sanoatdagi qo'shimcha o'sish manbalari sifatida qator yangi loyihalar ko'rsatib o'tildi. Jumladan, Angren shahrida keramik va keramgranit plitka ishlab chiqarish, Yangiyo'l tumanida "Tinchlik" kichik sanoat zonasini, Parkent tumanida "Parkent Pharm" erkin iqtisodiy zonasini, O'ra Chirchiq tumanida mebelchilikka ixtisoslashgan klaster, qo'ziqorin yetishtirish va shirin makkajo'xori ishlab chiqarish, Yangiyo'l'da turkiyalik sarmoyador ishtirokida baliqchilik majmuasi, Nurafshon shahrida to'qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirilayotgani qayd etildi.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga ham alohida to'xtalib o'tildi.

Qayd etilganidek, chorva va parranda go'shti yetishtirish hajmi hana hana poytaxt va viloyat ehtiyojlari uchun yetarli emas. Shu bois, Ohangaron tumanida chorvachilikni rivojlantirish va ozuqa bazasini kengaytirish bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Bu yerda Qo'ychilik va echkichilik ilmiy-ishlab chiqarish markazini tashkil etib, 50 ming bosh naslli qo'y va echki olib kelish rejalashtirilgan. Ohangaron o'rmon xo'jaligi balansidagi o'rmon bilan qoplanmagan 60 ming gektar yaylovni auktsion orqali ajratish mexanizmi joriy etildi.

Umuman, 2026-yilda 2,1 trillion so'mlik 78 ta chorvachilik loyihasi amalga oshirilib, 496 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Shuningdek, 35 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy etish, yangi yerlarni o'zlashtirish, bog' va uzumzorlar barpo qilish rejalashtirilgan.

Parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha Oqqo'rg'on va Ohangaron tumanlarida yiliga 30 ming tonna parranda go'shti yetishtirish quvvatiga ega, qiymati 45 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Qayd etilganidek, piyoz va sarimsoqdan gektariga olinayotgan daromad g'alladan bir necha o'n barobar yuqori. Shuning uchun Ohangaron g'alla maydonlarini yuqori daromadli ekinlarga bosqichma-bosqich o'tkazish taklifi ma'qullandi.

Qisqa vaqt ichida Bo'stonlikdagi "Amirsoy" qishki kurort majmuasi va "Beldersoy resort" maskani xalqaro darajadagi turizm markazlariga aylangan qayd etildi. Endilikda shunday loyihalarni Parkent, G'azalkent, Ohangaron va Angrenning tog'li hududlarida ham amalga oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Masalan, Parkentda "Oltin bel" cho'qqisi va unga tutash hududda mehmonxona, "shale" uslubidagi uylar, dam olish va ko'ngilochar majmualarni o'z ichiga olgan tog'-chang'i kurort zonasini, Ohangaron tumanida esa "Moviyo tog'lar" dam olish oromgohi negizida zamonaviy turizm majmuasi tashkil etiladi.

Shuningdek, Angren shahrining Lashkarak va Yangiobod hududlarida "turizm qishloqlari", Bekobod tumanida ekologik va ov turizmi, Parkent tumanida "Kumushkon" turizm majmuasi hamda Parkentsoyda oilaviy dam olish maskanlari va mehmon uylarini tashkil etish rejalashtirilgan. Joylashtirish vositalari quvvatini 35,5 ming o'ringa yetkazish ko'zda tutilgan.

Mazkur ishlar hisobidan viloyatda turizm eksportini 600 million dollarga, xorijiy va mahalliy sayyohlar sonini 16,5 millonga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda viloyatning "og'ir" toifadagi va "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi" tuman, shahar va mahallalaridagi 231 ta loyihaga 956 milliard so'm ajratilgani qayd etildi. Mahallalarda uy-joy, elektr, suv, kanalizatsiya va yo'llarni yaxshilash ishlarini jadallashtirish vazifasi qo'yildi.

Xususan, ichimlik suvi bormagan 39 ta mahalla markazlashgan ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi, yana 81 ta mahalladagi 166,7 kilometr yaroqsiz suv tarmog'i rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, 145 ta mahalladagi 121 ta eskirgan transformator yangilanib, 443,6 kilometr elektr tarmoqlari almashtiriladi.

Yig'ilishda yirik ijtimoiy va innovatsion loyihalar ham ko'rib chiqildi. Jumladan, Yuqori Chirchiq tumanida 400 gektar maydonda qiymati 5 milliard dollar bo'lgan "Tashkent Medical Smart City" xalqaro innovatsion tibbiyot shaharchasini barpo etish rejasini muhokama qilindi. Shu bilan birga, Nurafshon shahrida 35,4 million dollarlik Kelajak texnologiyalari markazini tashkil etish, 100 dan ortiq xorijiy AT kompaniyani jalb qilish va xizmatlar eksportini yiliga 20 million dollarga yetkazish, 670 o'rinni ko'p tarmoqli tibbiyot klasteri, ijtimoiy muassasalar markazi, viloyat davlat arxivi binosi kabi loyihalar muhokama qilindi.

Bundan tashqari, aholi murojaatlari bilan ishlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, "yashil iqtisodiyot" va yoshlarga oid siyosat borasida olib borilayotgan ishlar hamda kelgusi rejalar ko'rib chiqildi.

Yig'ilish yakunida Prezidentimiz mutasaddilarga viloyat islohotlar shtabi bilan birgalikda mavjud salohiyatdan to'liq foydalanib, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan har bir dastur va loyihaning aniq natija berishini ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berdi. Toshkent viloyatini kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirib, boshqa hududlar uchun namuna sifatida mas'ulalar faoliyatining eng ustuvor vazifasi bo'lishi belgilandi.

O'ZA

## JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari bugungi tahlil va murakkab tizimni samarali boshqarish hamda qat'iy nazorat qilish yangicha yondashuvni talab qiladi. Shu munosabat bilan taqdimotda sohada zamonaviy boshqaruv va raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish, samaradorlik ko'rsatkichlarini "Jazolovchi tizimdan — aholiga xizmat ko'rsatuvchi tizimga" tamoyili asosida qayta ishlab chiqish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Mahallalarda profilaktika ishlarini tashkil etish holatiga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda respublikamizdagi qariyb 9 ming mahallada 10 mingdan ziyod profilaktika inspektori xizmat qilib kelmokda. O'tgan yili ular aholidan kelib tushgan 2,5 milliondan ziyod arizani ko'rib chiqqan, 470 mingdan ortiq holat bo'yicha materiallar sudga yuborilgan. Shu bilan birga, profilaktika inspektori faoliyati ustidan o'rtiqcha boshqaruv bo'g'inlari ko'payib ketgani oqibatida mahalla xavfsizligi va jinoyat profilaktikasiga yetarli e'tibor qaratilmayotgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan profilaktika inspektori o'rtiqcha vazifalardan xalos etib, ularni bevosita o'ziga yuklatilgan ishga — mahallada xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va aholi muammolari bilan manzilli ishlashga to'liq yo'naltirilgan tizim yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Jumladan, kunlik onlayn yo'riqnomaga o'tkazish, "Mening inspektorim" elektron tizimi orqali xizmatni tashkil etish, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari bilan elektron ma'lumot almashishini joriy qilish, profilaktika inspektori ishidan ajratmagan holda onlayn o'qitish va malakasini oshirish, mahallada xavfsizlikni ta'minlashga ko'maklashuvchi "jamoat yordamchisi" guruhlarini faoliyatini yo'lga qo'yish taklif etildi.

Inspektorga ayrim huquqbuzarliklar bo'yicha qaror qabul qilish vakolatini berish, 6 ta kam ahamiyatli qilmish

bo'yicha ma'muriy ogohlantirish tizimini joriy etish taklif qilindi.

Bu orqali inspektorning mahalladan chiqmagan holda ish olib borishi, samaradorligi ortishi va ko'proq aholi bilan yaqindan ishlash imkoniyati yaratilishi ta'kidlandi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha uzluksiz ishlash tizimini yo'lga qo'yish, buning uchun profilaktika inspektori, maktablardagi inspektor-psixologlar va mahallalardagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorni mahalla darajasida o'zaro bog'laydigan, yoshlar, ayollar va oilaviy muammolarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladigan yaxlit tizim yaratish zarurligi ta'kidlandi. Ular real vaqt rejimida axborot almashishlari hamda yagona ma'lumotlar bazasidan foydalanishlari uchun profilaktika axborot tizimi joriy qilinadi.

Kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Jamoat xavfsizligi xodimlarini tayyorlash tizimi amaliyot bilan uzviy bog'langan manzilli dual ta'lim asosida qayta ko'rib chiqilayotgani qayd etildi. Xususan, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi va Jamoat xavfsizligi universiteti o'rnatilgan profilaktika inspektori, probatsiya inspektori, patrul-post, yo'l-patrul va qo'riqlash xizmati mutaxassislarini maqsadli tayyorlash bo'yicha yangi tizim taklif etildi. Bunda nazariya va amaliyot uyg'unlashtirilib, o'qishning birinchi kursida 80/20, ikkinchi kursda 60/40 va uchinchi kursda esa 50/50 nisbatda tashkil etildi.

Ta'lim jarayonida ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish, protsessual harakatlar, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, javobgar tayyorgarlik, psixologik bardoshlilik, muomala madaniyati, saf bo'limlarini boshqarish kabi amaliy kompetensiyalar shakllantirildi.

Tinglovchi va talabalar stajyor lavozimiga tayinlanadi, mustaqil ish yuritish hamda qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lib, murabbiy nazorati va javobgarligi ostida ish yuritadi. Bitiruvdan keyingi 5 yil davomida monitoring qilinib, malakasi doimiy oshirib boriladi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, jamoat xavfsizligini ishonchli ta'minlash, mahallalarda huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar murojaatlariga tezkor javob berish va xodimlar faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha aniq yechimlar ishlab chiqish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O'ZA

### Amir Temur tavalludining 690 yilligi

## “TEMUR TUZUKLARI”

“...Ul fursatlar Temuriya salotini dasturi bilan to'shak ustida o'tturur edim”.  
(To'qqiz yuz birinchi (1495-1496) yil voqialari) “Boburnoma”dan.

*Bobomdan qolgan ey so'zlar, ayo so'zlar, Menga darmon-u quvvat ham davo so'zlar.*

*Bobom qurgan saroylar ichra sizlar ham Buyuk bir qo'rg'onsiz dahr aro, so'zlar.*

*Mening sha'n-u g'ururim ham sharaf-shonim, Turar dunyo turar to bu bino, so'zlar.*

*Jahongirlik bila fath-u zafarlardin Dilimga siz beribdirsiz safo, so'zlar.*

*Iki kaftin ochib turgandayin bobom, Qolibdursiz menga misli duo, so'zlar.*

*Jam o'lmish harb-u zarbning san'ati sizda, Guvohdir olam-u arz-u samo, so'zlar.*

*Jahon to olgusi davlatchilik darsin, Jahon davlatlari sizlarda jo, so'zlar.*

*Misoli narrasherning na'rasidirsiz, Berursiz to qiyomat siz sado, so'zlar.*

*Ulug'vor saltanat shundoq bino bo'lmas, Ko'ribdursiz qanchalar jabru jafu, so'zlar.*

*Og'irdir podshohlik birla baxt yo'li, Bo'lingiz menga ham siz Rahnamo, so'zlar.*

**Sirojiddin SAYYID, O'zbekiston xalq shoiri**

## BUYUK HUKMDOR SABOQLARI YANGI O'ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANS G'OYASI NEGIZIDA

Uzoq vaqt mobaynida o'zligimiz, ma'naviy qudratimizni soyada qoldirish uchun buyuk sarkardaning mo'tabar nomi sobiq mustamlakachilik mafkurasi qobig'ida nomunosib sifatlar bilan qoralab kelindi. Yurtimiz istiqbolga erishganidan keyin ulug' ajdodlarimiz qatori Amir Temur shaxsiyatiga ham munosabat tubdan o'zgardi. Mustaqillikning

ilk yillaridanoq benazir ajdodimizning mo'tabar nomini abadiylashtirish borasida ko'plab ishlar qilindi. Bu ulug' siymo, tom ma'noda, xalqimizning erk, hurriyat, hamiyat va oriyat ramziga aylandi. Bugun esa yangi O'zbekistonda misli ko'rilgan islohotlar, xalq va millat ruhiniyatidagi kelajakka yuksak ishonch kayfiyati, zamon bilan

hamnafaslikda kamol topib, Uchinchi Renessans g'oyasini yuzaga chiqarish maqsadida g'ayrat-u shijoat ko'rsatayotgan yosh avlodning ulkan orzu-umidlari Amir Temur bobomiz shaxsiyati va faoliyatidagi bunyodkorlik tamoyillariga nihoyatda uyg'un.

Davomi 3-beta

### Nuqtayi nazar

## ADOLAT VA ISHONCH

### SPORTNING ENG MUHIM MEZONI

**Jismoniy tarbiya va sport faqat professional natijalar yoki xalqaro musobaqalardagi yutuqlar bilan emas, balki aholi salomatligi, yoshlar tarbiyasi va jamiyat farovonligiga bevosita bog'liq strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Ommaviy sportni rivojlantirish, yoshlarni jismoniy faollikka keng jalb etish, sport infratuzilmasini kengaytirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qilingan ishlar bu borada yaxshi samara bermoqda.**

Bu yaqinda Prezidentimiz raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida ham alohida ta'kidlandi. Qayd etilganidek, so'nggi to'qqiz yilda 1,5 mingdan ziyod mahallada 1774 ta zamonaviy sport maydonchasi barpo etildi. Hududlarda 200 dan ortiq yirik sport inshooti, 4 mingga yaqin xususiy sport klubi ish boshladi. Sport bilan professional shug'ullanuvchi yoshlar soni 2 karra oshdi, olimpiya terma jamoalari sportchilari 2 barobar, paralimpiya bo'yicha esa 3 barobar ko'paydi. Bular, albatta, yurtimizda sportga bo'lgan e'tibor natijasidir. Mavjud tashabbus va islohotlar qanchalik samarali bo'lmasin, ularning mustahkam qonunchilik asosi bo'lmasa, barqaror va uzoq muddatli natijalarga erishish mushkul. Shu ma'noda, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi ayni muddao bo'ldi.

Davomi 2-beta

2026-yil 9-aprel, 69-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz.uz\_news



Nuqtayi nazar

ADOLAT VA ISHONCH  
SPORTNING ENG MUHIM MEZONI

## Boshlanishi 1-betda

Bu hujjati so‘nggi yillarda mamlakatda sport sohasidagi keng ko‘lamli islohotlarning mantiqiy yakuni, ayni paytda esa yangi bosqichning huquqiy poydevori sifatida baholash mumkin. Chunki amaliyot yaqqol ko‘rsatdiki, sportni rivojlantirish faqat alohida qaror, dastur yoki musobaqalar bilan emas, balki yaxlit va puxta o‘ylanagan huquqiy tizim orqali ta‘minlanadi. Yangi qonun aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi.

## Bir martalik aksiya emas

Keyingi yillarda sohadagi yondashuv tubdan o‘zgaradi. Ilgari sport ko‘proq yuqori natijalar, medallar va professional sportchilar bilan bog‘liq tarzda qabul qilingan bo‘lsa, bugun unga aholi salomatligi, yoshlar tarbiyasi va hayot sifati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy institut sifatida qaralgani.

Ammo shu yangi yondashuvlarning barchasi amalda to‘liq aks etmagani ayrim muammolarni yuzaga keltirayotgandi. Masalan, ommaviy sportni tashkil etish, yoshlarni saralash va tayyorlash, yangi sport turlarini tan olish, sport tashkilotlari faoliyatini tartibga solish kabi yo‘nalishlarda huquqiy aniqlik, ya‘ni asos yetishmasdi. Yangi qonun aynan shu “uzilish”ni bartaraf etib, amaliyot va huquqiy baza o‘rtasidagi mutanosiblikni tiklashga qaratilgan bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

“Qonunda ommaviy sport tadbirlarini tizimli tashkil etish, ularning huquqiy asoslarini belgilash orqali rejali va uzbek xarakter kasb etishi ta‘minlanmoqda. Ilgari turli tashabbuslar doirasida o‘tkazib kelingan musobaqalar endilikda yagona tizim asosida bo‘lib o‘tadi.

Bu nima beradi? Eng avvalo, barqarorlik. Ya‘ni sport tadbirlari “bir martalik aksiya” emas, balki doimiy ijtimoiy jarayonga aylanadi.

## Tartib va shaffoflik

Yangi qonunda sport turlarini e‘tirof etish va reyestr kiritish tartibi aniqlanib qaytish yo‘lida ham muhim yangiliklardan biri. Aytish kerakki, bu o‘zgarish orqali sport sohasida muayyan tartib va shaffoflik ta‘minlanadi. Avval bu masalada aniq mezonlar yetishmasligi sababli ayrim sport turlarining maqomi noaniq bo‘lib qolardi. Masalan, ayrim holatlarda muayyan sport turi faqat bir-ikki hududda yoki tor doirada rivojlangan bo‘lsa-da, rasman tan olingan holatlar uchrdi. Lekin amalda u bilan shug‘ullanuvchilar soni kam, infratuzilmasi yetarli emas, musobaqalar muntazam o‘tkazilmadi. Bu esa resurslar tarqoq taqsimlanishiga, e‘tibor va mablag‘lar haqiqatan ommaviy bo‘lgan yo‘nalishlarga yetib bormasligiga sabab bo‘lardi.

Yangi qonunda paralimpiya, surdlimpiya, maxsus olimpiya hamda ko‘zi o‘jizlar sportiga doir masalalarning qonun darajasida aniqlanib belgilab qo‘yilayotgani sohadagi eng muhim yangiliklardan biri.

Chunki ilgari bu yo‘nalishlar amalda rivojlanib kelgan bo‘lsa-da, ularning huquqiy asoslari to‘liq va tizimli tarzda mustahkamlanmagan edi. Masalan, paralimpiya harakati muayyan dasturlar va tashabbuslar orqali qo‘llab-quvvatlangan. Biroq ushbu faoliyatni muvofiqashtiruvchi institutsional mexanizmlar, vakolatlar taqsimoti va mas‘uliyat doirasi har doim ham aniq belgilanmagan sababli xalqaro musobaqalarga chiqishda tashkiliy yo‘nalishda ayrim muammolar yuzaga kelib turgan.

Malika QODIRXONOVA,  
senator

yoshlar muntazam shug‘ullanadi, musobaqalar o‘tkaziladi.

Bu yondashuv nima beradi? Birinchidan, davlatning bu boradagi resurslari haqiqatan ham hayotiy asosga ega bo‘lsa, aholi orasida talabgir sport turlariga yo‘naltiriladi. Ikkinchidan, har qanday sport yo‘nalishi rasmiy maqom olish uchun tabiiy ravishda kengayishga, ommalashishga intiladi. Uchinchidan, tizimda “qog‘ozdagi sport turlari” emas, balki amalda ishlayotgan va natija berayotgan yo‘nalishlar ustuvor bo‘ladi. Shu tariqa yangi talablar orqali sohadagi taraqqiyot rasmiy raqamlarda emas, balki aholi hayotidagi ommaviylik va barqaror rivojlanishi bilan baholanadi. Bu, o‘z navbatida, resurslarni samarali taqsimlashga, e‘tibori haqiqatan rivojlanayotgan yo‘nalishlarga qaratishga xizmat qiladi.

Qonunda javobgarlikni qo‘llash, targ‘ibot, ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, diskvalifikatsiya qilish kabi normal belgilab qo‘yildi. Ya‘ni sport musobaqalari natijalariga noqonuniy ta‘sir ko‘rsatishga qarshi normal kuchaytirildi. Maqsad — zamonaviy sportda adolat va shaffoflikni ta‘minlash. Bu yerda masala faqat jazoni kuchaytirishga emas, balki bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan yaxlit tizimni shakllantirishdir.

Bu tizim, avvalo, ong va munosabatdan boshlanadi. Ya‘ni sportchilar, murabbiylar va hakamlar orasida halollikni ichki qadriyat sifatida qonun to‘g‘risi muhim. Inson qoidalarga faqat jazodan qo‘rqani uchun emas, balki o‘z prinsiplari tufayli amal qilishi kerak.

Yangi bir muhim jihat — hamkorlik. Sport tashkilotlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik o‘rtasidagi uzviy aloqa har qanday shubhali holatga tezkor va adolatsiz munosabat bildirish imkonini yaratadi. Eng muhimi, bu choralarining barchasi sportda ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki ishonch bor joydagina sport o‘zining tarbiyaviy kuchi va jamiyat uchun ahamiyatini saqlab qoladi.

## Alohida va to‘liq huquqiy maqom

Yangi qonunda paralimpiya, surdlimpiya, maxsus olimpiya hamda ko‘zi o‘jizlar sportiga doir masalalarning qonun darajasida aniqlanib belgilab qo‘yilayotgani sohadagi eng muhim yangiliklardan biri.

Chunki ilgari bu yo‘nalishlar amalda rivojlanib kelgan bo‘lsa-da, ularning huquqiy asoslari to‘liq va tizimli tarzda mustahkamlanmagan edi. Masalan, paralimpiya harakati muayyan dasturlar va tashabbuslar orqali qo‘llab-quvvatlangan. Biroq ushbu faoliyatni muvofiqashtiruvchi institutsional mexanizmlar, vakolatlar taqsimoti va mas‘uliyat doirasi har doim ham aniq belgilanmagan sababli xalqaro musobaqalarga chiqishda tashkiliy yo‘nalishda ayrim muammolar yuzaga kelib turgan.

Ayniqsa, surdlimpiya, maxsus olimpiya yoki ko‘zi o‘jizlar sporti kabi yo‘nalishlar ko‘p hollarda umumiy sport tizimi ichida “qo‘shimcha” yo‘nalish sifatida qabul qilinib, ularning o‘ziga xos ehtiyojlarini yetaricha inobatga olinmasdi. Bu esa infratuzilma, murabbiylar tayyorlash, musobaqalarni tashkil etish kabi masalalarda muayyan cheklavlarni keltirib chiqargan.

“Yangi qonun bu yondashuvni tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda adaptiv sport yo‘nalishlariga alohida, to‘liq huquqiy maqomga ega tizim sifatida qaralgani. Milliy paralimpiya qo‘mtasining vakollatlari aniq belgilab berilayotgani esa boshqaruvdagi noaniqliklarni bartaraf etib, qaror qabul qilish va amalga oshirish jarayonlarini samarador qiladi.

Sport federatsiyalari, klublar, ligalar, shuningdek, murabbiylar, hakamlar va agentlarning huquqiy maqomi belgilab qo‘yilayotgani sohada professional boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Ilgari mavjud bo‘lgan noaniqliklar ko‘p hollarda mas‘uliyatning tarqoqligiga sabab bo‘lgan. Yangi qonun esa har bir subyektning o‘rni va vazifasini aniq belgilab, tizimni institutsional jihatdan mustahkamlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, sportda natijalarning barqaror va uzoq muddatli bo‘lishini ta‘minlaydi.

## Jahon standartlariga moslashuv

Qonunning yana bir yangiligi unda Milliy antidoping agentligining huquqiy maqomi aniq belgilanishi bo‘ladi. Ilgari dopingga qarshi kurash, asosan, targ‘ibot va ko‘pincha individual choralar orqali kechardi. Lekin qonunchilikda aniq vakolat va choralar tizimi yetarli darajada mustahkamlanmagan edi. Bu esa ayrim holatlarda sportda adolat va ishonch muhitini shubha ostiga qo‘ygan bo‘lardi.

Yangi qoidaga ko‘ra, Milliy antidoping qoidalari Jahon antidoping kodeksi asosida tasdiqlanadi va uni buzuganlik uchun qo‘llaniladigan choralar aniq belgilandi. Masalan, sportchi diskvalifikatsiya qilindi, musobaqadagi natijalari bekor bo‘ladi yoki terma jamoadan chetlatilishi mumkin. Bu mexanizmlar nafaqat jazo, balki profilaktika vositasi sifatida ham xizmat qiladi — sportchi va murabbiylar uchun qoidalarning qat‘iyligi va oqibatlarini tushunarli bo‘ladi.

Qonunning barchamiz uchun muhim bo‘lgan yana bir jihati shundaki, unda ish beruvchilarning xodimlar uchun sport bilan shug‘ullanish sharoitlarini yaratishga oid normal kiritildi. Bu sportni hayotimizning bir qismiga aylantirish yo‘lidagi muhim qadam desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Ya‘ni sport endi faqat maktab, universitet yoki sport inshootlari bilan cheklanmaydi. U ish joyida ham, kundalik turmushda ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Bu aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi qonun mazmunan chuqur, qamrov jihatdan keng va zamonaviy talablarga javob beradigan hujjat sifatida qabul qilindi. U sportni faqat sohaviy faoliyat emas, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida targ‘ib etishga qaratilgan bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Agar qonunda belgilangan mexanizmlar ijrosi to‘liq va samarali ta‘minlanasa, yaqin yillarda nafaqat mamlakatimiz sportchilarining natijalari, balki aholi salomatligi, yoshlar tarbiyasi va umumiy hayotda ham sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. Shu ma’noda, ushbu qonun katta o‘zgarishlar yo‘lidagi muhim huquqiy poydevordir.

## USTUVOR VAZIFALAR KATTA NATIJALARGA YO‘L OCHADI

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishda Prezidentimiz ilgari surgan ko‘plab tashabbuslar sohada mutlaqo yangi boshqaruv va tashkiliy mexanizmlarni joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Nodirbek SAYFULLAYEV,  
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor

Xususan, endi har bir vazir, tarmoq va bank rahbari, shuningdek, hokimlar shaxsan o‘zi namuna bo‘lib, xodimlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun sharoit yaratishi zarurligi ta‘kidlandi. Haftada bir kunni “sport kuni” deb belgilash, tashkilotlarda muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish, sport infratuzilmasi mavjud bo‘lmagan holatlarda esa federatsiyalar va sport muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar bu boradagi ishlarni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, har bir tashkilotda sportning kamida 4 ta turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, g‘oliblarni rag‘batlantirish hamda vazirlar, idoralar va hokimliklar o‘rtasida respublika miqyosida musobaqalarni tashkil etish orqali sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish ko‘zda tutilmoqda.

Alohida e‘tiborga molik jihat, shundaki, xususiy sektordagi ham ommaviy sportni qo‘llab-quvvatlash uchun iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilayotganidir. Ya‘ni tadbirkorlarning sport inshootlari qurish va jihozlash uchun sarflagan mablag‘lari soliq bazasidan cheklangan, jalb etilgan murabbiylar uchun soliq yuki keskin kamaytirilishi bu sohada xususiy sektor faolligini oshirishga zamin hozirlaydi.

Yangi tizimning yana bir muhim jihati “mahalla — maktab — sport muassasi — federatsiya” zanjiri asosida aholini sportga jalb qilish va iqtidorli yoshlarni saralashning samarali mexanizmi joriy etilishidir. Bu orqali joylarda sportni rivojlantirish, infratuzilmadan samarali foydalanish va iqtidorli sportchilarni erta aniqlash imkoniyati kengayadi.

Sport ta‘limida dual o‘qitish tizimini keng joriy etish orqali talabalarni amaliyot bilan chambarchas bog‘lashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Endi talabalar nafaqat nazariy bilim oladi, balki maktab va mahallalarda to‘garaklar ochib, murabbiylik ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Bu esa ularning kelgusida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishida muhim omil bo‘ladi.

Yig‘ilishda oliy ta‘lim muassasalarida sport yo‘nalishidagi ishlar yetarli darajada emasligi, federatsiyalar bilan hamkorlik hamda iqtidorli talabalarga individual murabbiy birlashtirish masalalarida kamchiliklar mavjudligi alohida qayd etildi. Ayrim oliygozlarda bu borada ijobiy tajribalar mavjud bo‘lsa-da, qator muassasalarda talabalarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichi past ekanini tanqid qilindi.

Shu munosabat bilan barcha oliy ta‘lim muassasalariga ilg‘or tajribalarni joriy etish, sportni rivojlantirish bo‘yicha aniq va manzilli rejalar ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Bu esa har bir oliygozdan tizimli yondashuv, mas‘uliyat va amaliy natijalarni talab etadi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida ham talabalar o‘rtasida sportni ommalashtirish, jismoniy faolligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasida qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Jumladan, institut sport majmuasida mini futbol, voleibol, basketbol, stol tennis, shaxmat va shaxsha bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar tashkil etilgan. Ikki sport zali, ochiq maydonchalar, zamonaviy inventarlar hamda boks ringi talabalar ixtiyorida. Shuningdek, 16 turdagi anjomlar

## Tomorqachilik

Saraning-sarishta, chog‘roqqina hovli. Uning ostonasidan hatshimiz hamon bahor iforiga oshufta turfa mevali daraxtlar qarshi oldi. Har bir barg, butoqda ko‘klam quyoshi jilvalanadi. Turfa gullar, yalviz-u giyohlarning xushbo‘y hidi dimoqqa urildi... — Kelaveringlar, eshigimiz ochiq, — deya xonadonning qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli sobihi bizga peshvoz chiqdi. Tomorqachi Erkinjon Karimov bilan tanishuvimiz shu tarzda kechdi.

Qo‘shpepa tumaniidagi Qumtepa mahallasida yashovchi Erkinjon usta tomorqachi sifatida tanilgan. Mana, bir necha yildirki, tomorqasida qo‘ziqorin yetishtiradi. Hozir 120 kvadrat metr joyda qo‘ziqorin ekib, bozorga chiqaryapti. Mahsulotning bozori chaqqon, bir kilosi ulgurji narxda 70-80 ming so‘m.

bilan jihozlangan trenajor zali yoshlarning chiqishiga xizmat qilmoqda. Cuzish havzasi mavjud. U talabalar bilan birga institut atrofidagi mahallalar aholisiga ham xizmat ko‘rsatmoqda.

Institut voleibol, stol tennis, shaxmat va basketbol federatsiyalari bilan hamkorlik memorandumlari imzolagan, qo‘shma musobaqalar va sport tadbirlarini muntazam o‘tkazib kelmoqda. Hozir talabalarining 20 nafari sport razryadiga ega. Yil yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkichni yanada oshirish rejalashtirilgan.

Mirzo Ulug‘bek tumani hokimligi bilan hamkorlikda mahalla yoshlari o‘rtasida sportga qiziqishni oshirish, o‘g‘il-qizlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida “Rektor kubogi” sport musobaqalari o‘tkazildi. Musobaqalarda institutga yaqin joylashgan 20 dan ortiq mahallada yashayotgan 300 dan ziyod yosh mini futbol, voleibol, stol tennis, shaxmat, shaxsha, suzish bo‘yicha bellashdi.

“Sog‘lom hayot — sog‘lom millat” shiori ostida “5000 qadam” yurish aksiyasi an‘anaviy tashkil etilmoqda. Yurish jarayoni ko‘tarinki ruh, birdamlik va sog‘lom turmush tarziga qiziqish muhitida o‘tib, ishtirokchilar nafaqat jismoniy faolligini oshirish, balki o‘zaro muluqot va jamoaviylikni mustahkamlash imkoniga ham ega bo‘lmoqda.

Takliflari asosida talabalarni sport jihozlari va formalar bilan ta‘minlash chorasi



ko‘rildi. Xususan, ularga sportning 8 turi bo‘yicha zarur anjomlar va kiyimlar taqdim etildi.

2025-2026-o‘quv yili davomida “Besh tashabbus olimpiyasi”, “Talabalar ligasi”, “Rektor kubogi”, “O‘zDSMI olimpiyasi” kabi 20 ga yaqin sport musobaqasi tashkil etilib, ularga 1500 dan ziyod talaba qamrab olindi. Ayni paytda “Yangi O‘zbekiston talabalar olimpiyasi”ning institut bosqichi davom etmoqda. Shuningdek, “Talabalar

ligasi”ning hududiy bosqichida ham yuzlab talaba faol ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari, yig‘ilishda belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, institutda haftalik “sport kuni”ni joriy etish, talabalarni ommaviy sportga yanada jalb qilish, sport to‘garaklari sonini ko‘paytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni rejalashtirdik.

Albatta, so‘nggi yillarda sport sohasida katta ishlar bajarildi va shunga mos ravishda sportchilarimiz dunyo sporti arenalarda tarixiy g‘alabalarni qo‘lga kiritmoqda. Shaharlardan tortib, eng chekka qishloqlarda ham zarur sport infratuzilmasi yaratilayotgani hisobiga sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi yurtdoshlarimiz qamrovi oshib boryapti.

Biroq davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, bugungi natijalar bilan cheklanib qolish mumkin emas. Imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, har bir hudud va ta‘lim muassasasida natijadorlikni ta‘minlash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Institut jamoasi oldida sportni yanada ommalashtirish, har bir talabani jismoniy faollikka jalb qilish, infratuzilmadan samarali foydalanish va natijadorlikni ta‘minlash bo‘yicha yanada katta vazifalar turibdi. Shu bois, kelgusida sportni ta‘lim jarayoni bilan chambarchas bog‘lash, talabalarining sog‘lom turmush tarziga qiziqishini oshirish va ularni jismonan barkamol avlod sifatida tarbiyalash ustuvor yo‘nalishlarimizdan biridir.

Xususan, endi nafaqat sport musobaqalarining tashkilotchisi, balki bevosita ishtirokchisiga aylanib, ushbu musobaqalarda faol qatnashishni maqsad qildik. Xodimlar o‘rtasida ham muntazam turli sport musobaqalarini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Yig‘ilishda oliygoz rektorlari Erkinjon Karimovning Davlat universiteti tajribasini o‘rganish va sport sohasi bo‘yicha bir yillik reja ishlab chiqish topshirildi. Biz ham ushbu yo‘nalishda yutuqlarga erishayotgan mazkur oliygoz, shuningdek, boshqa oliy ta‘lim muassasalarini hamda jahon tajribasini o‘rganib, eng samarali natija berayotgan yondashuvlarini institutimizda joriy etishni maqsad qildik.

Oliygozimizda, avvalo, ijodkor shaxslarni tarbiyalaymiz. Biroq bu sport bizga begona degani emas. Aksincha, har bir ijodkorning jismonan sog‘lom, ruhan tekib bo‘lishi uning ijodiy samaradorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shunday

USHBU MAQOLANI  
QORAQALPOQ TILIDA  
HAM O‘QISH UCHUN  
QR-KODNI SKANER  
QILING!

ekan, biz professional sportchilarni yetishtirmasak-da, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlar ongida jismoniy faollikka intilishni kuchaytirish, qiziqishni shakllantirishni o‘z oldimizga muhim vazifa qilib qo‘ydik.

Zero, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, sport bu faqat musobaqa emas, balki sog‘lom turmush tarzi, intizom, vatanparvarlik va mamlakat nufuzini namoyon qiladigan katta kuchdir.

“OLGANIMIZ OLTIN BO‘LYAPTI”  
Erkinjon Karimovning ish tajribasi ommalashmoqda

— O‘n yildan ortiq mehnat migranti bo‘ldim, — deydi Erkinjon issiqxonada o‘sayotgan qo‘ziqorinlardan birini qo‘liga olib. — Pul topsh, tirikchilik yo‘lida ne-ne qinchiliklarni boshdan o‘tkazmadim. Begona yurtda kimningdir muruvvatini kutib yashash og‘ir mehnatdan ham yomon bo‘larkan. Tomorqa xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlarni ko‘rib, uyda qolishga qaror qildim. “Biznesga birinchi qadam” loyihasi asosida 100 million so‘m imtiyozli kredit oldim. Xorijda qo‘ziqorin yetishtiriladigan issiqxonada ishlagan edim. Ish boshlashimda o‘sha tajriba qo‘l keldi. Qo‘ziqorin urug‘ini uch qavatli so‘rilarda parvarishlaymiz. Bu kichik maydonidan ko‘p mahsulot olishni ta‘minlaydi. Qolaversa, niholar rivojini nazorat qilaydiga ham, tayyor hosilni yig‘ib olishda ham qo‘l keladi. Natijada bir yig‘im-terimim o‘zida 3 tonnadan ortiq qo‘ziqorin olamiz. Bu qariyb 200



Sherzod QORABOYEV olgan surat.

million so‘m degani. To‘rt marta hosil yig‘ilishi inobatga olinasa, daromad salmog‘ini chamlalab olish qiyin emas. Endi mahsulotni qayta ishlash, qadoqlashni yo‘lga qo‘yish, eksportga chiqarishni maqsad qilganman. Bu faqat oilamga emas, hamqishloqlarimga ham qo‘shimcha ish, daromad keltiradi. Yoshligimda ulug‘larimiz “Olgan tuprog‘ing oltin bo‘lsin” deb duo qildirdi. O‘shanda bu hikmatning ma‘nosini tushunmay, oddiy tuproq qanday qilib oltin bo‘ladi, deb o‘ylardim. Adashgan ekanman, mehnat qilgan odam oddiy tuproqni oltin durga aylantirishga qodir ekan. Dehqonchilik qilib kam bo‘lmayapmiz. Ko‘pchilik ish o‘rganish maqsadida yo‘l-yo‘riq so‘raydi. Ularni har jihatdan qo‘llab-quvvatlayman, imkon qadar yordam beraman.

Qahramonimiz “ustoz-shogird” maktabiga asos solib, bu ishga qiziqqan yoshlarga zarur bilim va ko‘nikmalar beryapti. Erkinjon shu

bilan cheklanib qolgan yo‘q, albatta. Tartib bilan ekilgan mevali bog‘ ham olingan daromad manbaiga aylangan. Pishqichilik mavsumida 3 tonnadan ortiq anjir oladi. Bodom, olma, o‘rinning bozori chaqqon. Bundan tashqari, parrandachilik, chorvachilikdan ham daromad topyapti.

— Mahallamizda o‘tgan yilning o‘zida dehqonchilik, chorvachilik, oilaviy tadbirkorlik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun 800 million so‘mdan ortiq imtiyozli sarmoya ajratilib, 70 dan ziyod yangi ish o‘rni yaratildi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Shukurxon Toshmetirov. — Ayni kunda ijtimoiy reyestrda turgan 8 kishiga 140 million so‘m imtiyozli kredit berildi. Shuningdek, mehnat migranti sifatida to‘yxatga olingan yoshlarni tadbirkorlik, tomorqachilikka jalb etib, amaliy ish tajribalaridan ibrat olishga chaqiryapmiz. Bu yil 50 ta xonadon tomorqasida issiqxona qurish, qo‘ziqorin va boshqa ertaki sabzavot ekinlari yetishtirish orqali sohani mahalla drayveriga aylantirmoqchimiz.

Rasuljon KAMOLOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Amir Temur tavalludining 690 yilligi

# BUYUK HUKMDOR SABOQLARI

## Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans g'oyasi negizida



**Maqsud ASADOV,**  
O'zbekiston Fanlar akademiyasining  
O'zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti direktori o'rinbosari,  
filologiya fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

### Temuriylar va Ikkinchi Uyg'onish davri: jasorat va ma'rifat uyg'unligi

IX-X asrlarda mamlakatimiz hududida ilm-fan markazlari yuzaga keldi. Xorazmshoh Abul Abbas Ma'mun II tashabbusi bilan Xorazmda qad rostlagan "Dorul hikma va ma'rifa" (Xorazm Ma'mun akademiyasi) ma'rifatga tashna, zehni o'tkir ilm fidoyilarini jalb qilgan. Ularning yetuk salohiyati, imkoniyatini yuzaga chiqarish va chuqur bilim olishi uchun keng imkoniyat yaratib berilgan.

Qolaversa, somoniylar saroyida turli mamlakatlardan keltirilgan nodir va noyob kitoblar jamlanib, ulkan kutubxona bunyod etilgan Abu Ali ibn Sinodet favqulodda iqtidor sohiblarining kamol topishida betimsol ahamiyat kasb etgan. Buyuk aql egalarning ixtirolari hozirga qadar inson manfaatlarini, istiqbolini, farovon turmushi uchun xizmat qilayotgani adolati jamiyatda iqtidoru iste'dodga beriladigan e'tibor besamar ketmasligiga yorqin dalildir.

Ikkinchi Uyg'onish davri — temuriylar Renessansining tamal toshi, taraqqiyot po'ydevori esa Amir Temur boshlagan ilg'or

islohotlarning amaliy natijasi edi. Millat va xalq boshiga turli mushkulotlar, sinovu mashaqqatlar tushganda haqiqiy elparvar, yurtsevar, mumtoz adabiyotimizda ulug'langanidek, "er tabiatli", fidoyi zodlar tarix sahnasiga chiqadi. Ularning toza fitratida olijanoblik, oliyihimmatlilik, mardonalik fazilati yorqin aks etib turadi.

Shubhasiz, Amir Temur asrlar mobaynida qiynalgan, ezilgan, jafokash xalqimizni mo'g'ul bosqinidan xalos qilib, milliy g'urur, milliy nafsoniyati tamoyillarini ongu shurga singdirgan matonat mash'alidir. Uning xalq ruhiniyatidagi o'ziga kuchli ishonchni uyg'otishi millatning qon tomlarida gupurib turgan, ammo erksizlik, umidsizlik, tushkunlik tufayli mudragan ma'naviy qudratini yana jonlantirib yubordi.

Amir Temur saltanatining sururli muvaffaqiyatlari ta'sirida adabiyot maydonida mangu nash'ur namo topgan, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bunday yozgan edi:

*Temurxon naslidan sulton Ulug'bek,  
Ki olam ko'rmasdi sulton aningdek...  
Rasadkim bog'lamish — zebi jahondur,  
Jahon ichra yana bir osmondur.*

Temuriy hukmdorlar aql-zakovat sohiblariga homiylik qilib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash barobarida o'zlarini ham ilmu hunar, san'atu madaniyat davrlariga boshchilik qildi. Masalan, Amir Temurning evarasi Husayn Boyqaro zamonida bugungacha ham ilmiy tadqiqotlarda sir-sinoatlari atrofiga o'rganilayotgan adabiy, ma'rifiy yuksalish bosqichi yuzaga keldi. Alisher Navoiy fenomeni, shubhasiz, bu jarayonning yorqin siymosi edi. Temuriy zoda Zahiriddin Muhammad Boburning jahon tamaddunidagi mavqei, davlat boshqaruvi, ilm-fan taraqqiyoti, madaniy va ma'naviy hayot rivojida bezavol shijoati Ikkinchi Uyg'onish davri yutuqlarining naqadar purviqorligini yanada yaqqol ko'rsatadi.

Bugun vatanimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi pog'onasi — yangi O'zbekiston davriga dadil va o'ktam qadam bosdi. Nafaqat ijtimoiy-maishiy turmush madaniyatida, balki xalqimiz ongu shuuri, ma'naviy-ma'rifiy dunyosida ham yangilanish, mamlakatimizdagi misli ko'rilmagan ijobiy islohotlar ta'sirida ertangi yorug' kunlarga umid va ishonch ruhi yorqin aks etmoqda. Tafakkur o'zgarishi esa shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyoti, yurt ravnaqi uchun keng imkoniyatlar ehsigini ochmoqda.

Hozir Uchinchi Renessans ostonasida intellektual salohiyatli, azmu shijoatli farzandlari bilan "eshik qoqib turgan" yangi O'zbekiston



jahon tamadduni sahnida har qachongidan-da ulug'vor va salobatli ko'rinayotir. Jumladan, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 80-yubiley sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqi millat yetakchisining kuchli irodasi va xalqimiz ma'naviy jasoratini ifoda etgan tarixiy hodisa bo'ldi.

"Ustuvor maqsadimiz — mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan o'zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir", degan edi Prezidentimiz. Darhaqiqat, jannatmonand

diyormizda "inson — jamiyat — davlat" va "inson qadri uchun" tamoyillari asosida yuritilayotgan olijanob siyosat ana shu fikrlarning amaliy isboti, hayotiy namunasi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining ilk bosqichidanoq ilm-fan rivoji va olimlarga alohida e'tibor qaratib, ma'rifatning hayotbaxsh kuchini taraqqiyotning nekin kelajagiga yo'naltirishni maqsad qilgan. Jumladan, 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish

**Ikkinchi Uyg'onish davri — temuriylar Renessansining tamal toshi, taraqqiyot po'ydevori esa Amir Temur boshlagan ilg'or islohotlarning amaliy natijasi edi. Millat va xalq boshiga turli mushkulotlar, sinovu mashaqqatlar tushganda haqiqiy elparvar, yurtsevar, mumtoz adabiyotimizda ulug'langanidek, "er tabiatli", fidoyi zodlar tarix sahnasiga chiqadi.**

### Tarix va bugun

# YETAKCHILIKNING TO'RT FAZILATI

Amir Temur davri davlat boshqaruvi haqida so'z yuritganda, eng avvalo, uning boshqaruvni tasodifiy emas, aniq qoida, tartib va mezonlarga tayanib tashkil etganini ta'kidlash lozim. Amir Temur davri davlatchiligi o'zbek davlatchiligining ko'p asrluk an'analarga suyangan holda shakllantirilgan bo'lib, unda boshqaruvning turli sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi tizim, qonun va tartib, ijtimoiy tabaqalar manfaatini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etgan. Amir Temur ana shu tarixiy tajribani tiklab, davlatni mustahkamlashda eng muhim omillardan biri sifatida munosib nomzodlarni tanlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratgan.



Amir Temur davlat boshqaruvi dargoh va devonlarga bo'lgan. Dargoh eng oliy hokimiyat markazi bo'lib, davlat va mamlakat ahamiyatiga molik masalalar aynan shu yerda hal etilgan. Shu bilan birga, dargohda vaqti-vaqti bilan xos majlislar (davlat ahamiyatiga ega eng muhim masalalar bo'yicha maxfiy majlis) o'tkazib turilgan. Bunday majlislarda davlat va mamlakat idorasi, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga munosabat, muhimi, mansab va vazifalarga tayinlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Bu holatdan ko'rinadiki, Sohibqiron Amir Temur davrida kadrlar siyosati tasodifiy emas, balki muhokama, kuzatuv va mas'uliyatli qarorga asoslangan. Maxsus kotiblar amonlati majlis bayonlari qayd etib borilishi esa qaror qabul qilish va uning natijalarini keyinchalik tekshirib ko'rish imkonini bergan. Bu davlat boshqaruvida institutsional yondashuv mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Amir Temurning dargoh faoliyatini boshqarish, odamlardan unumli foydalanish, o'z atrofiga to'plash, katta-kichik tadbirlarni tashkil qilish borasida turgan yo'lini "Temur tuzuklari"da bayonlardan yaqqol ko'rish mumkin. Chunonchi, Sohibqiron bunday yozgandi: "Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini anglatdim (ya'ni boshqaruvning o'ndan to'qqiz qismini mashvarat-maslahat, siyosatchilar va olimlar bilan kengashib hal qilardim, bo'lmagan taqdirda (o'ndan birini) urush bilan olardim). Demishlarkim, o'z o'mida qo'llangan tadbir bilan ko'plab lashkarning qilichi o'zlashtirilgan har qanday mamlakat darvozasi ochib, favj-favj lashkarni yengib bo'lar. Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor,



**To'rabek TO'RAYEV,**  
Soliq qo'mitasi Inson resurslarini  
rivojlantirish va boshqarish  
boshqarmasi boshlig'i

jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab odamga ish buyuradi... Yana mening tajribamdan o'timishim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishi mulohazakorlik, tadbir va kengashga tayanishi lozim. Shuning uchun har bir ismi qilishga kirishar ekanman, avval odan o'ylab, (amirlarim bilan) kengashdim. Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda oldimizdagi ishlarim yaxshi-yomoni, foyda-yu ziyon tomonlari, ularni qilish-qilmaslikdan so'z ochib, ulardan fikr so'rar edim. Ularning so'zlarini eshitgach,

ishning har ikki tomonini mulohaza qilib, foydaziyonlarini ko'ngliga keltirardim. Uning xatarli tomonlariga ko'proq e'tibor berardim. Qaysi bir ishda ikki xatar mavjud bo'lsa, uni bajarishdan voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim... Ishlarimning barini kengash bilan yuritib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'larini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik-chidamlik ko'rsatib, ehtiyoorkorlik bilan uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim".

"Temur tuzuklari"dan yana bir iqtibos: "Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi — asillik va toza nasillik (palagi toza, kelib chiqishi, nasl-nasabi), ikkinchisi — aql, farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u riyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odami vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va riyat ixtiyorini unga topshirsinlar, Bunday vazirga to'rt imtiyoz — ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat berilsin".

Bu o'rinda e'tiborli jihat shundaki, talablar faqat shaxsiy sodiqlik yoki harbiy kuch bilan cheklanmagan. Aksincha, amaldorning axloqiy qiyofasi, odamlar bilan muomalasi, xalq hayotini bilishi, bosiqiligi va tinchlikparvarligi asosiy mezon sifatida belgilangan. Bu holat Amir Temur lavozimlarga tayinlash siyosatini



faqat boshqaruv texnikasi emas, balki ma'naviy-axloqiy mas'uliyat bilan ham bog'laganini anglatadi.

U ayrim toifa kishilarni lavozimga yaqinlashtirmaslikni ham qat'iy belgilaydi. G'iybatga moyil, uydirma gaplarga quloq soluvchi, jabr-zulm qiluvchi, hasadchi, kin saqlovchi, qora ko'ngilli va past tabiatli odamlarga vazirlik lavozimini berilmasligi kerakligi qayd etilgan. Bu yerda Amir Temur nafaqat "kimni tanlashni", balki "kimni tanlamaslikni" ham aniq belgilab bergan. Boshqacha aytganda, u kadrlar siyosatida manfiy saralash mezonlarini ham ishlab chiqqan. Bu esa

chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2025-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari mohiyatida ana shu — Uchinchi Renessans g'oyasining hayotiy asoslari, bu yo'ldagi amaliy xatti-harakatlar strategiyasi ifodalangan.

Ilm-fan ahlining berilgan imkoniyat va yaratilgan sharoitlardan mamnunlik kayfiyati ila yurt istiqbolini yo'lida astoydil qilayotgan mehnati esa, hech shubhasiz, yaqin kelajakda samara beradi.

### "Temur tuzuklari": millat, hurriyat va hamiyat qo'llanmasi

Amir Temur faoliyatida adolat, haqiqat, ma'rifat, jasorat bayrog'ini baland ko'tarib, razolat-u xiyonat, adovat-u qabohatga qarshi murosasiz va shafqatsizlarcha kurashgan. Uning qiyofasida nohaqligun adolatsizlikka isyon ruhi millatga cheksiz muhabbat bilan o'zaro uyg'unlashgan. Agar "Temur tuzuklari"ga sinchkovlik ila nazar tashlasak, bu fikrlarimizning to'g'riligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Bugun yurtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilgani, buyuk muhaddis Imom Buxoriy qadamosining qayta ochilgani, ko'plab ulug' ajdodlarimizning mangu makonlari obod maskanlarga aylantirilgani Sohibqiron Amir Temur boshlagan xayrli ishlarining yangi O'zbekistondagi ulug'vor va betakror namunalaridir.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 15-yanvardagi "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori xalqimiz turmush madaniyatida, "Temur tuzuklari"da keltirilganidek, oqko'ngillik fazilatining kamol topishi va hushyorlikning oshirilishiga xizmat qiladi, albatta. Ishonch bilan aytish mumkinki, yangi O'zbekiston ulug' ajdodimiz Amir Temurning nekin qarashlaridan saboq olib, taraqqiyotning mutlaqo o'ziga xos yo'lidan dadil davom etmoqda.

Sohibqiron bobomiz "Ochiq ko'ngil va rahm va shafqat bila xaloyiqni o'zinga rom etdim. Va adolat va muruvvat qilib, zulmu javrdin yiroq bo'ldim. Va johil va yomon fe'l'lardan bezorlik tiladim", deydi. Kitob esa insonni ezgu fazilatlarga oshno etadi. Uni kamolot sari yo'llab, axloq pokligiga erishtiradi.



Ana shuni inobatga olib, yangi O'zbekistonda kitobxonlik alohida urg'u berilayotir. Jumladan, joriy yilning 24-fevral kuni mamlakatimiz yetakchisining "Ko'ksaroy" qarorgohida yoshlar bilan uchrashuvda ko'plab masalalar qatori kutubxona, "book cafe" va kitob do'koni ochib, oyiga 10 mingdan ortiq kitob sotuvini yo'lga qo'yan tadbirkorlarga 3 yilga 1 milliard so'mgacha 7 foizli ssuda berilishi alohida ta'kidlandi. Bu esa kitobxonlikni yanada rivojlantirish bilan birga yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularni mehnat bozoriga jalb qilish va moddiy manfaatdorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-fevraldagi "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi tarixiy qarorida Amir Temur va temuriylarning jahon tamadduni rivojiga qo'shgan hissasini keng targ'ib qilish maqsadida "Buyuk temuriylar" atamasining xalqaro ilmiy istiloh sifatida joriy qilinishini ta'minlash uchun xorijiy davlatlarda "Buyuk temuriylar tarixi va madaniy merosi" mavzusida taqdimotlar, media tadbir va anjumanlar o'tkazilishi belgilab qo'yilgan.

Darhaqiqat, "Buyuk temuriylar" istilohi yangi O'zbekiston g'oyasi va Uchinchi Renessans orzusi bilan musharaklikda targ'ibu tashviq etilsa, bu nekin qarashlarning o'zaro uyg'unligi, bir-biriga chambarchas bog'liqliq yosh avlodning ongu shuuriga singdirilsa, biz o'z ko'zlagan maqsadlarimizga, albatta, erishamiz. Zero, Amir Temur bobomiz aytganidek, azmu qaror va sabru toqat va mulohaza va ehtiyot va bahodirlik bilan barcha ishlar muayassar bo'lar.

Hosil yetilgach, soliqni uch bo'lib olsinlar. Agar riyat soliq to'lovchi yuborilmasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'lovchi yubormasinlar. Agar soliq yig'uvchini yuborishga majbur bo'linsa, ular soliqni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar; kaltak-arqon ishlatib, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib, zanjir bilan kishanlamasinlar".

Bu esa Amir Temur davrida quyi pog'onadagi amaldorlar faoliyati ham tartib, hisobdorlik va muayyan axloqiy me'yorlar asosida yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi. Demak, bu boshqaruv tizimida faqat yuqori lavozimdagilar emas, balki joylarda ish yurituvchi ijrochi bo'g'in ham qonun va adolat talablariga bo'yundirilgan.

Xususan, bugungi kunda yurtimizda aynan shunday odilona soliq siyosati tashkil etilishi ham soliq tizimiga ishonch va soliq tuzumlarini oshirishga imkoniyat yaratmoqda. Prezidentimizning quyidagi gaplari bunga yaqqol misol: "Bizga hozir tushum oshishi asosiyi emas. Birinchi navbatda, tizimni to'g'ri qilib, bilmaganlarga o'rgatib, soliq yukini kamaytirib, tadbirkorlarning eminerkin, halol ishlashini yo'lga qo'yishimiz kerak. Soliqchilar jazolovchi emas, ko'makchi bo'lishi kerak".

Amir Temur davlat boshqaruvida ijtimoiy tabaqalar manfaatini hisobga olishini ham muhim deb bilgan. Sohibqironning quyidagi so'zlariga e'tibor beraylik: "Davlat ustunlari o'n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan quvvatlanadi". Bu tabaqa va toifa quyidagilardir: siyosatchilar, din peshvolari, harbiylar, amaldorlar, ziyolilar, savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvodarlar. Ko'rinib turganidek, bu yerda barcha ijtimoiy tabaqalar mujassamlangan. Gap "hukmron sinf" yo biror alohida tabaqa ustida emas, butun jamiyat a'zolari va ular tegishli bo'lgan toifalar ustida tarmoqda.

"Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga... turo-tuzukka tayanib... amirlar, vazirlar, sipoh (harbiylar), riyat (xalq) — har birini o'z lavozimiga va martabasiga qarab boshqardim", deydi Amir Temur.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning kadrlar siyosati quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan: birinchi — lavozimga munosiblik va qobiliyat; ikkinchi — axloqiy poklik va adolat; uchinchi — xalq ahvolidan xabardorlik; to'rtinchi — maslahat va kengash asosida qaror qabul qilish; beshinchi — tayinlangan shaxs faoliyati ustidan nazorat va hisobdorlik. Shu jihatdan qaralganda, Amir Temur davlatni kuchli qilishning asosiy shartini aynan kadr tanlashda deb bilgan.



## Tahlil

Jahongir ISAYEV,  
Barqaror rivojlanish  
markazi bo'lim boshlig'i

Bugun yer degradatsiyasi masalasi faqat ekologik muammo yoki agrotexnik kamchilik sifatida talqin etish yetarli emas. Bu, avvalo, iqtisodiy barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, qishloq aholisi daromadi va hududiy taraqqiyot sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi strategik omildir. Shu ma'noda, yangi O'zbekiston sharoitida yerga munosabat tabiatni muhofaza qilish doirasidan chiqib, davlat boshqaruvi madaniyati, uzoq muddatli rejalashtirish va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat mezoniga aylanmoqda.



Jahon bankingning sohaviy tahlillarida 2050-yilga borib Sirdaryo oqimi 5 foizgacha, Amudaryo oqimi 15 foizgacha qisqarishi mumkinligi, umumiy suv tanqisligi esa 15 milliard kub metr gacha yetishi ehtimoli qayd etilgan. Bu raqamlar yer va suv siyosatini eski yondashuvlar asosida davom ettirish mumkin emasligini ko'rsatadi. Aks holda, suv tanqisligi va yer degradatsiyasi bir-birini kuchaytiruvchi omilga aylandi.

2023-yil noyabrda yig'ilishda Prezidentimiz mamlakatimiz suv resurslarining atigi 20 foizi O'zbekiston hududida shakllanishi, har yili betonlanmagan kanal va ariqlarda 14 milliard kub metr, ya'ni 36 foiz suv yo'qotilayotganini ta'kidlagan edi. Bu raqamlar masalaning ildizi ko'p hollarda tabiatda emas, balki infratuzilma eskirgani, suv hisobining mukammal emasligi, nazorat va boshqaruvi tizimlarining yetarli darajada samarali ishlamayotganida ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Yer degradatsiyasiga qarshi kurash, avvalo, boshqaruvi isloh qilish masalasi. Suv qanday hisoblanadi? Qaysi hududda qancha yo'qotish bor? Qaysi yer maydonlarida sho'rlanish tezlashmoqda? Qaysi islohot natija beryapti, qaysi biri faqat hisobotda qolmoqda? Ana shu savollarga aniq javob berilmas ekan, eng yirik

milliard kilovatt-soatga tushirish vazifalari belgilangan.

Bu raqamlar tarmoqda miqdoriy o'zgarishlar boshlanganini anglatadi. Biroq tahliliy nuqtayi nazardan eng muhim savol shunda: bu o'zgarishlar tuproq sifatining yaxshilanishi, suv sarfining real qisqarishi va hosildorlik barqarorligida qanday aks etmoqda? Agar islohotlar natijasi faqat qurilgan inshootlar yoki

yer masalasi faqat sug'oriladigan maydonlar bilan cheklangan bo'lmagani, butun agrolandshaft tizimi nuqtayi nazardan yondashish kerakligini anglatadi.

2026-yil martdagi ekologik loyihalar taqdimotida 2026-2030-yillarga mo'ljallangan ustuvor choralar qatorida cho'rlanishga qarshi kurashning ilmiy va amaliy asoslarini kuchaytirish zarurligi alohida qayd etildi. Bu

sho'rlanish darajasi hisobga olinmasa, kutilgan samaraga erishilmaydi.

Demak, yer degradatsiyasiga qarshi kurashda kelajak raqamli monitoring, aniq ma'lumotlar bazasi va ilmiy asoslangan boshqaruvi madaniyati bilan bog'liq. Qaror qabul qilish jarayoni "qancha mablag' sarflandi?" degan savoldan "qanday natija olindi?" degan mezoniga o'tishi shart. Ana shundagina infratuzilmaga sarflanayotgan har bir so'm va joriy etilayotgan har bir texnologiyaning haqiqiy qiymati ochildi.

Bu masala butun mamlakat uchun dolzarb bo'lsa-da, uning ko'rinishlari barcha hududda bir xil emas. Ayrim joylarda sho'rlanish yuqori bo'lsa, boshqa hududlarda suv tanqisligi, yana boshqalarda shamol eroziyasi yoki yaylovlar yemirilishi asosiy xavf manbai bo'lishi mumkin. Shu bois, bu muammoni yagona markazlashgan yondashuv bilan emas, balki manzilli hududiy siyosat orqali hal etish samaraliroq.

Orolbo'yi va cho'llashuv xavfi kuchli hududlarda ekologik barqarorlik, yer qoplamini saqlash va yaylovlarni tiklash ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim. Intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda esa suv sarfini qisqartirish, sho'rlanish va drenaj masalalarini hal etish birinchi o'ringa chiqadi. Demak, yer degradatsiyasiga qarshi kurashning muvaffaqiyati milliy dasturlar bilan birga hududiy differentsiatsiya tamoyili qanchalik hisobga olinishiga ham bog'liq.

Yer degradatsiyasi faqat tuproq sifati yomonlashuvi bilan cheklanmaydi. U oziq-ovqat yetishtirish imkoniyatlarini qisqartiradi, suv tanqisligini kuchaytiradi, iqlim o'zgarishiga moslashishni qiyinlashtiradi va qishloq aholisi daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu masala barqaror rivojlanish bilan bevosita bog'liq. Chunki barqaror rivojlanish bugungi ehtiyojlarni qondirish bilan birga kelajak uchun ham mustahkam resurs va imkoniyatlarni saqlab qolish demakdir.

Bugungi kunda yerga munosabatni o'zgartirish faqat qishloq xo'jaligi sohasining vazifasi emas. Bu mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, suv ta'minoti va hududlar taraqqiyoti bilan bog'liq strategik masaladir. Yer faqat ishlab chiqarish vositasi emas, balki aholi farovonligi va mamlakat kelajagining tayanch resursi. Shu bois, uni asrashni navbatdagi ekologik tadbir emas, balki milliy manfaat va barqaror taraqqiyot talabi sifatida anglash zarur.

Shuning uchun yer va suv resurslarini boshqarishga oid islohotlar samarasi ajratilayotgan mablag' hajmi yoki qabul qilinayotgan dasturlar soni bilan emas, balki ularning qanchalik yaxlit, ilmiy asoslangan, raqamli monitoringga tayangan va natijaga qaratilgan tizimga aylana olishi bilan o'lchanishi kerak. Agar infratuzilma modernizatsiyasi, suv tejoychi texnologiyalar, sho'rlanish va melioratsiya bo'yicha ma'lumotlar, ilmiy yondashuv va iqtisodiy rag'batlar o'zaro uyg'un ishlasa, bugungi tashdirdi barqaror o'sish nuqtasiga aylanishi mumkin.

Shu ma'noda, bugun yerni asrash faqat tabiatni asrash emas. Bu O'zbekistonning iqtisodiy kelajagini, ijtimoiy barqarorligini va milliy taraqqiyot istiqbolini asrash demakdir. Yerga munosabat qanchalik oqilona va uzoqni ko'zlab qurilsa, mamlakatning ertangi rivojlanish sifati ham shunchalik mustahkam bo'ladi.

Prezidentimiz ilgari surayotgan resurs tejankor va "yashil" rivojlanish modeli ham aynan shu mantiqqa tayanadi: tabiiy resurslarga munosabat o'zgarimas ekan, iqtisodiy o'sishning sifati va barqarorligi haqida so'z yuritish qiyin. Shuning uchun yer degradatsiyasiga qarshi kurash bugun agrar siyosatning tor yo'nalishi emas, balki mamlakatning umumiy rivojlanish modeliga daxldor masalaga aylandi.

Yer degradatsiyasining eng xavfli jihati shundaki, u favqulodda ofat kabi bir kunda namoyon bo'lmaydi. Yillar davomida tuproq unumdorligini pasaytiradi, sho'rlanishni kuchaytiradi, suvni ushlab turish qobiliyatini zaiflashtiradi. Natijada qishloq xo'jaligi samaradorligini bosqichma-bosqich yemirib boradi. Bu jarayonning iqtisodiy ta'siri esa juda katta: fermer avvalgi hosilni olish uchun ko'proq suv, ko'proq o'g'it, ko'proq energiya va ko'proq ish kuchi sarflashga majbur bo'ladi. Demak, yer degradatsiyasi faqat hosilni kamaytirmaydi, balki mahsulot tannarxini oshiradi, raqobatbardoshlikni pasaytiradi va agrar iqtisodiyotning barqarorligiga putur yetkazadi.

Muammoning global ko'lami ham jiddiy. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning 2024-yil dekabrda e'lon qilingan sho'rlangan tuproqlar bo'yicha yirik global baholoviga ko'ra, dunyoda 1,381 milliard gektar yer sho'rlanish ta'sirida, yana 1 milliard gektar yer xavf ostida. Hujjatda sho'rlangan tuproqlar ulushi yuqori davlatlar qatorida O'zbekiston ham qayd etilgan. Shuningdek, ayrim ekinlar bo'yicha hosil yo'qotishlari 70 foizgacha yetishi mumkinligi ta'kidlangan. Bu raqamlar yer degradatsiyasini tor agrotexnik masala emas, balki global oziq-ovqat va suv xavfsizligi kontekstida baholash kerakligini ko'rsatadi.

O'zbekiston misolida bu masala yanada dolzarb. Chunki mamlakatimizda qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat ta'minoti va qishloq aholisi bandlegining sezilarli qismi yer va suv resurslari holatiga bevosita bog'liq. Tuproq



unumdorligining pasayishi faqat agrar sohadagi yo'qotish emas, u oziq-ovqat narxlarini, eksport tushumi, suv iste'moli va ijtimoiy barqarorlikka ham ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, haroratning ko'tarilishi va transchegaraviy suv resurslariga bog'liqlik yer degradatsiyasini kuchaytiradigan omillardir. Biroq O'zbekiston voqeligi muammoning katta qismi tabiiy omillardan ko'ra boshqaruvi sifati, infratuzilma holati va hisob-kitob tizimlari samaradorligi bilan ham bevosita bog'liqligini ko'rsatmoqda.

investitsiyalar ham kutilgan samarani bermasligi mumkin.

So'nggi bir-ikki yilda yer va suv resurslarini boshqarishga doir siyosatda yangi bosqich boshlangani ko'zga tashlanmoqda. 2025-yil avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo'ljallangan dasturida 2551 kilometr irrigatsiya tarmog'ini rekonstruksiya qilish, nasos stansiyalarining yillik elektr iste'molini 6,8 milliarddan 6,2

o'zlashtirilgan mablag'lar bilan emas, balki yerning meliorativ holati va suv tejashning amaliy samarasi bilan baholansa, siyosat sifati ancha oshadi.

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida suv tejoychi texnologiyalar qamrovini 61 foizga, ya'ni 2,6 million gektarga yetkazish, yiliga 2,5 milliard kub metr suv tejash, 2026-yilda bu maqsadlar uchun 3,3 trillion so'm ajratish rejasini belgilab berildi. Bu raqamlar muammoga endi alohida loyihalar yig'indisi sifatida emas, balki milliy islohot dasturi darajasida yondashilayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz yetakchisi 9-fevral kuni qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish va sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishgan edi. Unda yer degradatsiyasiga qarshi kurashish yanada keng qamrovda — yaylovlar, lalmi yerlar, agrotexnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq siyosat sifatida ko'ridi. 2030-yilgacha yana 938 ming gektar yaylovni rivojlantirish va yaxshilash, 2026-2027-yillarda 620 ming gektar yaylovni tiklash rejalashtirilgani aytiladi. Bu

esa yer degradatsiyasiga qarshi kurash milliy ekologik siyosatning mustaqil va ustuvor yo'nalishiga aylanayotganini ko'rsatadi.

Bugungi sharoitda yer degradatsiyasiga qarshi samarali siyosatni faqat mablag' ajratish yoki alohida inshootlar qurish bilan ta'minlab bo'lmaydi. Buning uchun yerning meliorativ holati, sho'rlanish darajasi, sizot suv sathi, suv sarfi, hosildorlik va agrotexnologik holat bo'yicha ma'lumotlarni yagona tizimga birlashtirish talab etiladi. Jahon banki tahlillarida ham infratuzilma modernizatsiyasi bilan bir qatorda monitoring tizimlari, xizmat ko'rsatish sifati va suv boshqaruvida institutsional islohotlar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekan ta'kidlangan.

Eng asosiy masala ilm, monitoring va amaliyot o'rtasida uzviy bog'liqlik yaratishdir. Agar tuproq tahlili, sho'rlanish xaritalari, sizot suv ko'rsatkichi va suv sarfi to'g'risidagi ma'lumotlar qaror qabul qilishga xizmat qilmasa, islohotlar ko'pincha parchalangan holda qolib ketadi. Masalan, bir hududda suv tejoychi texnologiya joriy etilishi mumkin. Agar o'sha yerda drenaj tizimi ishlamas yoki

2025-yil Nishon tumanidagi Oqoltin mahallasi aholisi uchun quvonchli voqealarga boy o'tdi. Xususan, odamlarning bir necha yillardan buyon amalga oshmay kelayotgan orzusi ro'yobga chiqdi. Hudud obodlikka yuz tutib, aholining yashash tarzi o'zgardirdi. Turmushi farovonlashdi. Ishsiz kishilarga o'zini band qilish imkoniyati yaratilib, har bir xonadonga baraka kirdi. Joriy yil esa yanada yaxshilanishi shubhasiz. Boisi, yaqinda Prezidentimiz raisligida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandlegini ta'minlash bo'yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Oqoltin mahallasidagi o'zgarishlar e'tirof etilib, hududdagi ichki yo'llar holatini yaxshilash uchun bir yarim milliard so'm ajratildi. Bu xushxabar butun mahalla odamlarini mamnun etgani shubhasiz.

## ORZU EDI

Bunga ancha yillar bo'ldi. O'shanda hali bu atrofda deyarli aholi yashamasdi. Dastlab xo'jaliklar tashkil etildi. Cho' o'zlashtirilishi borasida katta ishlar boshlanib ketdi. Katta kanal orqali suv o'tkazilgach, yaqin atrofa paxta ekish boshlandi. Xo'jaliklarga ishchi olinib, aholi birin-ketin hozirgi Novur atalmish qishloqqa ko'chib kela boshladi. Kimdir chorva bilan, yana birov dalada mehnat qilib turish kechiradigan bo'ldi. Har bir xonadonda kamida uch ot so'yx bo'lgan. Asli mehnatkash odamlar emasmi, tomorqa bo'sh turganidan xijolat bo'lishdi. Maqsadli foydalanish istagida harakat boshlandi. Ammo suv yo'qligi bois, bu befoyda bo'ldi. Lekin aholi intilishdan to'xtamadi. Xo'jalik rahbarlariga murojaat qilib chiqishdi. Oradan vaqt o'tib, qishloqqa ilk bor quvur orqali suv keltirildi. Bu katta imkoniyat edi. Odamlar yeng shimarib ishga kirishdi. Qisqa fursatda qishloq yashil makonga aylandi. Hovlilarda

turli sabzavot ekilib, bo'zg'ordan ortganini bozorga ham sotadigan bo'lishdi.

"Adashmasam, o'sha davrda to'rt-besh yil suv yaxshi kelib turdi, — deydi Novur qishlog'ilik Panji ota Xolyorov. — Shuning evaziga tomorqamizdan unumli foydalandik. Daraxt ekdik, daromad olishni boshladik. Afsuski, bu ko'pga bormadi. Boshida suv bir-ikki oy to'xtab qoldi. Keyin e'tirozlar bo'lavergach, nasoslarni ta'mirlashdi. Yana suv kela boshladi, ammo ko'pga bormadi. Oxiri, umuman suv kelmay qo'ydi. Qancha harakat qilsak-da, natija bo'lmadi.

Vaqt o'tishi bilan hovlida biror narsa ekishdan ko'ra, ko'klab turgan nihollarimizni asrab qolishni o'ylab qoldik. Baribir imkon topmadik. Asta-sekin daraxtlarimiz nobud bo'la boshladi. Bu orada xo'jaliklar ham tugatilib ketdi. Ko'pchilik ishsiz qoldi. Oila tebratish zarur. Birgina dehqonchilik qilish chorasi ham yo'q bo'lgandi. Chorva bilan shug'ullana boshladik. Qo'y-mol ko'paytirish boshlandi. Ammo bu orada qishloqdagi sanoqliq qolgan daraxtlar ham qurib bitdi.

Aslida, chorvaga ham yaxshi sharoit zarur. Bir necha bor hashar uyushtirib, suv keltirishga urindik. Kuchimiz yetmadi. Axiyri taqdirga tan berib, umidimizni uzdik. Bu faqatgina orzuga aylandi..."

Panji ota ta'kidlaganidek, vaqt o'tishi bilan qishloqda ahvol ancha og'irlashib qoladi. Hatto jazirama odamlar soyalaydigan daraxt topilmaydigan daraja bordi. Murojaat qilib, borilmagani idora qolmadi. Ammo quvur va dadan nariga o'tishmasdi. Sabri tugagan yoshu qari birlashib, hashar uyushtirdi. Kanaldan suv keltirish rejalashtirdi. Bu oson emasdi, albatta. Elektr toki, nasos kabi masalalarni hal etish muammo bo'lib qoldi. Barcha urinish samarasiz ketdi. Ilojiz qolishgach, ko'pchilik xorijga ish izlab ketishga majbur bo'ldi.

## Kambag'allikdan farovonlik sari

# 25 YIL KUTILGAN KUN



## ENDI XORIJGA SAYOHATGA BORAMIZ

Aslida, oilasidan yiroqda mehnat qilish hech kimga zarur emas. Ammo iloj qancha, ro'zg'or tebratish kerak. Faxriddin aka ham o'zga yurtlarda ish izlab yurishni xohlamagandi. Boshida yaqin-atrofa tayinli yumush topilar degan umidda yurdi. Afsuski, o'sha paytlari tumanda ham biror yirikroq ishlab chiqarish korxonasi yo'q edi. Ilojiz qoldi. Qishloqdo'shlariga qo'shilib chet elga ketdi. U tarafdagi koshki yengil yumush hozirlab qo'yilgan bo'lsa. Topilgani og'ir mehnat. Bajramsdan iloj qancha? Issiqni issiq, sovuqni sovuq demay, topganini oilasiga

jo'natadi. Gohida ishdan charchab o'tirib qoladi. Shu paytlari: "Qani edi qishlog'imizda ham daromad topishga imkon bo'lsa. Bu yerlarda sarson bo'lib yurmasmizki? Bir kun shunday bo'lar", deya xayol surardi. Shu kuni umid bilan kutib vaqt o'tkazdi.

— Umrimning sakkiz yili boshqa yurtda o'tdi, — deydi Faxriddin Xudoyorov. — Boshqa iloj ham yo'q edi-da. Farzandlar ulg'ayayotgan, ularni o'qitish uy-joy qilish zarur edi. Ro'zg'or tashvishlarini aytmasa ham hamma biladi. Aslida, kim yurtdan uzoqda bo'lishni xohlaydi deysiz. O'lis o'lkada pul topishning o'zi bo'ladi? Shukrki, bugun bunga hojat yo'q. Endi uyda turib ham mablag' topishga sharoit bor. Ilgari dehqonchilik qilamiz desak, suv yo'q edi. O'tgan yil qishloqqa oqar suv keldi. Buni

biz yigirma besh yil kutdik. Bundan boshimiz ko'kka yetdi. Quvonganimizdan qo'limizga ketmon olib, tomorqani ishga soldi. O'tgan yilning o'zida olti tonnadan ziyod kartoshka oldim. Uni kovlab olgach, o'miga sabzi ekdim. Hosil cho'g'i ancha baland bo'ldi. O'zimizning ehtiyojimizdan tashqarisini bozorda sotdik. Hisoblab ko'rsam, eilik milliondan so'mdan ortiq daromad ko'ribman. Bu yil hosilni yanada oshirish niyatim bor. Shunday ekan, chetga chiqishga nima hojat?! Endi xorijga faqat sayohatga boramiz.

Mahalla faollarining aytishicha, qishloq oqar suv bilan ta'minlanishi natijasida o'tgan yilning o'zida 100 ga yaqin kishi migratsiyadan qaytgan. Ayni paytda o'zini band qilib, daromad topyapti. Muhimi, oilasi bag'rida.

— O'tgan yili ariqlarimizda suv oqa boshlaganidan qanchalar xursand bo'ldik, — deydi Zokir Qurbonov. — Nabiralarim qiyiqirib, sakraganini aytmayisizmi? Eshik oldida suv oqib tursa, bundan ortiq baxt yo'q. Necha yillardan buyon ishlov berilmagan hovlimizga sabzavot ekdik. O'zim shu qishloqdagi maktabda qorovul bo'lib ishlayman. Uyda turmush o'rtog'im, kelinim bekor edi. Endi ular ham band bo'lib qoldi. Tomorqamizda kartoshka ekamiz. O'tgan yilgi hosildan uyga kerakli narsalar xarid qildik. Bundan tashqari, o'g'lim ham xorijdan qaytdi. Endi kattaroq joyda dehqonchilik qilamiz. Oila jam bo'lib yashashga nima yetsin...

## LOY KO'CHALAR RAVON BO'LADI

— Oqoltin mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli beshta qishloq bor, — deydi mahalla raisi Dilshod Davlatov. — Shulardan eng ko'p aholi istiqomat qilayotgani Novur qishlog'i. Shu paytga qadar barcha shu qishloqda oqar suv muammo bo'lib kelayotgandi. 2025-yilda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida 3 milliard so'm ajratildi. Shuning hisobiga nasos olib kelindi. 2 kilometr masofaga quvur yotqizildi. Qishloq aholisi tashabbusi bilan transformator va 150 kilovattli quyosh paneli o'rnatildi. O'tgan yilning aprel oyidan boshlab katta kanaldan suv tortildi. O'sha yilning o'zida dehqonchilik ishlari avj oldi. Odamlar ikki martadan ekin ekib, eilik-oltmish million so'mgacha daromad oldi. O'rnatilgan quyosh paneli hisobidan ham davlatga elektr sotib, har bir xonadon oyiga bir millionga yaqin mablag' ishlamoqda. Joriy yil bu ko'rsatkich yana ortishi aniq.

Qishloq faollarining aytishicha, ichki yo'llarga shu paytga qadar biror marta e'tibor qaratilmagan. Shu sabab qishda loy, yozda tuproq. Mashinalar harakatlanishi, bolalarning maktabga qatnashi har doim mushkul bo'lib kelgan. Endi qishloq ichki yo'llari asfalt qilinishi orqali tez orada hududning yana bir katta muammosi bartaraf etiladi. Bu esa odamlarning turmush tarzini yanada yaxshilash bilan birga yashashdan roziligi o'tishiga zamin yaratadi. Muhimi, inson qadri tamoyili asosida qilinayotgan harakat ezgu manzil sari shaxdam odimlamoqda.

Akbar RAHMONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

# KASBIY TA'LIM YANGI BOSQICHDA

## Mehnat bozoriga yo'naltirilgan INSON KAPITALI strategiyasi



**Azimjon HUSANOV,**  
Kasbiy ta'lim agentligi direktori

Bugungi globallashtirish va keskin raqobat sharoitida kasbiy ta'lim tizimi iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi, bandlikni ta'minlovchi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash uchun strategik omil sifatida maydonga chiqmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tizimni modernizatsiya qilish, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda yoshlarni aniq kasb-hunarga yo'naltirish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Endi kasb o'rganishga nafaqat ehtiyoj, balki har bir fuqaroning munosib hayot kechirishi uchun mustahkam poydevor sifatida qaraladi.

Xususan, Kasbiy ta'lim agentligining tashkil etilishi yoshlarda amaliy ko'nikmalar va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish samaradorligini oshirish, shuningdek, kasbiy ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan yangilashga keng imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, texnikumlar faoliyatini takomillashtirish, dual ta'lim tizimining joriy qilinishi, ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirilishi, zamonaviy o'quv dasturlari va xalqaro standartlarning taqdim etilishi ushbu yo'nalishdagi islohotlarning amaliy ifodasidir. E'tiborli jihati shundaki, kasbiy ta'lim tizimi kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ishonchli vositaga aylanib bormoqda. Yangi O'zbekistonda "inson qadri uchun" tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etar ekan, kasbiy ta'lim aynan shu g'oyaning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki malakali, o'z kasbining ustasi bo'lgan inson nafaqat oilasi tayanchi, balki butun jamiyat va davlat taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchga aylangan.

### Mazmun va zarurat

Bugun mehnat bozori talablari kun sayin, soat sayin o'zgarib bormoqda. Eskirgan, an'anaviy kasblar o'rni innovatsion, raqamli texnologiyalar va kreativ yondashuv talab qiluvchi yangi mutaxassisliklar egallamoqda. Aynan shu tizimli muammolarni tubdan hal qilish, ta'lim va mehnat bozori o'rtasida mustahkam ko'priklar barpo qilish maqsadida Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida kasbga tayyorlashning mutlaqo yangi, zamonaviy arxitekturasini yaratish bo'yicha tarixiy tashabbuslarni ilgari surgan edi. Qabul qilinayotgan yirik davlat dasturlari yoshlarni erta kasbga yo'naltirishdan tortib, xalqaro darajadagi yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish va kafolati ish bilan ta'minlashga bo'lgan ulkuzsiz zanjiri o'zida mujassam etmoqda. Kasbiy ta'lim tizimi oldidagi eng dolzarb masala bitiruvchi taqdiri, uning mehnat bozorida o'z o'rnini topa olishidir. Zero, kasbiy ta'lim natijasi auditoriya bilan emas, balki ishlab chiqarish maydoni va real iqtisodiyotda o'z tasdig'ini topadi. Shu ma'noda, mehnat bozori bilan uyg'unlik kasbiy ta'lim sohasidagi barcha qarorlarning bosh mezon.

Mamlakatimizda bu borada tub burilish yuz bermoqda desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Endi ta'lim tizimi iqtisodiyot ehtiyojlari bilan hamohang rivojlanmoqda. Har bir yangi yo'nalish, o'quv dasturi va qabul kvotasi ortida aniq hisob-kitob, chuqur tahlil va eng muhimi, mehnat bozorining real talabi turibdi. Bugungi yondashuvning ustuvor jihati shundaki, unda ish beruvchi o'ddiy kuzatuvchi emas, balki jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanoqda. Bu esa kadrlar tayyorlash sifatini

yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda. Qaysi sohada qanday mutaxassis kerakligi, u qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligi nazariy farazlar emas, balki amaliy ehtiyojlar asosida belgilanmoqda. Natijada kasbiy ta'lim tizimi "natija uchun ta'lim" prinsipiga o'tdi. Eng muhimi, bunday yondashuv ta'lim tizimiga ham moslashuvchanlik baxsh etmoqda. Chunki bugungi mehnat bozori muttasil o'zgarib, yangi kasblar paydo bo'lmoqda, ayrimlari esa tarixga aylanoqda. Bunday sharoitda faqat mehnat bozori bilan hamnafas tizimga samarali ishlay oladi.

Mehnat bozori bilan uyg'unlikni ta'minlash, tabiiyki, ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Sababi yangi yo'nalish va kasblarning paydo bo'lishi bozor talabini o'zgartirmoqda. Qolaversa, sun'iy intellektning jadal kirib kelishi ham bu masalalar ustida bosh qotirishga undaydi. Shu sababli zamon ehtiyojlariga javob beradigan bilim va ko'nikmalar ham muntazam yangilab borilishi shart. Bugun kasbiy ta'lim tizimida o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish jarayoni izchil davom ettirilmoqda. Endi dasturlar eskicha yondashuv asosida emas, bevosita soha ehtiyojlari, ishlab chiqarish talablari va zamonaviy texnologiyalar rivojidan kelib chiqib shakllantirilmoqda.

### Asosiy ustun

Kasbiy ta'lim tizimida shakllanayotgan yangi model markazida dual ta'lim turibdi. Bu yondashuv o'qitish va ishlab chiqarish o'rtasidagi an'anaviy uzilishni bartaraf etib, ikkisini yagona tizimga birlashtirayotgan muhim mexanizmg aylanmoqda. Bugun 510 dan ortiq texnikum, 14 mingdan ziyod korxon va tashkilot hamda 67 mingdan ortiq o'quvchi "ustoz-shogird" tamoyili asosida faol hamkorlik qilayotgani dual ta'limning amalda qamrovli tizimga aylanganini ko'rsatadi. Eng e'tiborlisi, ishlab chiqarishning o'zidan jalb etilgan 17 mingdan ortiq malakali mutaxassisning ustoz sifatida ishtirok etayotgani ta'lim jarayonini real mehnat muhiti bilan bevosita bog'lamoqda. Bu jarayon kasbiy ta'lim mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Endi o'quvchi faqat auditoriyada o'tirib bilim olmaydi, balki ishlab chiqarish jarayonining to'laqonli ishtirokchisiga aylanadi. Bu diplom uchun emas, aksincha, real ko'nikma uchun ta'lim tamoyiliga asoslanmoqda. Natijada bitiruvchi mehnat bozoriga moslashish bosqichi uchun ortiqcha vaqt sarflamaydi, tayyor mutaxassis sifatida kirib keladi. Dual ta'limning yana bir muhim jihati — uning iqtisodiyot bilan to'g'ridan to'g'ri integratsiyalashganidir. Huddudlarda "investor — tarmoq — texnikum" zanjiri yo'lga qo'yilgani va 4000 dan ortiq yirik ish beruvchining texnikumlarga birlashtirilgani kadrlar tayyorlashni butunlay yangi bosqichga olib chiqqdi. Endi qaysi hududda qanday mutaxassisga ehtiyoj borligi aniq prognoz qilinmoqda. Kadrlar tayyorlash esa aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib



**Hozir respublikamiz bo'yab 595 ta kasbiy ta'lim tashkilotida 438 mingga yaqin o'quvchi 329 kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim olmoqda. Xususan, ularning 192 ming 185 nafari xotin-qizlardir.**

rejalashtirilmoqda. Bu esa ortiqcha yoki talab qilinmaydigan mutaxassislar tayyorlashning oldini olib, bitiruvchilar bandligini ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanoqda. Bundan tashqari, ushbu model korxonalar uchun ham manfaatli. Ular o'ziga zarur kadrlarni tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etadi. O'quvchi esa o'qish jarayonidayoq kelajakdagi ish joyiga moslashadi. Bundan tashqari, dual ta'limda o'qiyotgan yoki o'qishni tugatganiga 3-yildan



## Islohotlar — amalda

ko'p bo'lmagan mutaxassisni ishga olgan tadbirkorlar uchun qo'shimcha reyting beriladi hamda daromad solig'ini to'lashda imtiyozlar davri uzaytirilishi nazarda tutilgan. Natijada "ta'lim — ishlab chiqarish — bandlik" zanjiri mustahkamlanib, iqtisodiyotning real sektori bilan ta'lim tizimi o'rtasida uzviy bog'liqlik yuzaga keladi. Shu tariqa dual ta'lim kasbiy ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqayotgan, uni zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirayotgan va eng muhimi, yoshlarni hayotga, aniq kasb va barqaror bandlikka tayyorlayotgan strategik ustunga aylanoqda.

### Ijtimoiy tenglik va inklyuzivlikni ta'minlash


Kasbiy ta'lim tizimida ijtimoiy adolat va inklyuzivlikni ta'minlash ustuvor vazifalardir. Tizimda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning turli ijtimoiy sharoitda ekanini inobatga olinib, ular uchun moslashuvchan malaka oshirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Xususan, uch yoshgacha farzandi bor, nogiron yoki nafaqa yoshiga yetgan pedagog va rahbar kadrlar uchun masofaviy hamda aralash shakldagi malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Bu esa har bir pedagogning ehtiyojidan kelib chiqib, kasbiy rivojlanishini ulkuzsiz ta'minlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida band bo'lmagan fuqarolar va ijtimoiy reyestrda kiritilgan oilalarning ishsiz a'zolarini kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha o'qitish tizimi keng joriy etilmoqda. Bu yo'nalishda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari negizida qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilib, ularning aniq ro'yxati shakllantirilmoqda. Eng muhimi, ushbu jarayon vaucher tizimi asosida moliyalashtirilib, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi hisobidan qo'llab-quvvatlanadi. Natijada umumiy hisobda 400 mingga yaqin band bo'lmagan fuqaro va kam ta'minlangan oilalarning ishsiz a'zolarini kasbga o'qitish, ularga yangi daromad manbai yaratish

o'quvchilari, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida eng dolzarb 10 ta kasb bo'yicha musobaqalar o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Tanlov doirasida minglab ishtirokchilar qamrab olinib, g'oliblar munosib rag'batlantiriladi hamda xalqaro musobaqalarga tayyorlanadi.

Boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida texnikum direktori va o'rinbosarlari uchun menajerlik sertifikatlash tizimi joriy etilib, 600 dan ortiq rahbar kadr maxsus o'quv kurslarida tayyorlanishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash maqsadida "Karyera" elektron platformasi ishga tushiriladi. Ushbu tizim orqali talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqa o'rnatilib, sun'iy intellekt asosida mos ish o'rinlari va nomzodlar tavsiya etiladi.

### Mahalliy va xalqaro integratsiya

Tizimda mahalliy va xalqaro integratsiyani kuchaytirish bugungi sharoitda strategik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, avvalo, tayyorlanayotgan kadrlarning faqat ichki bozor talablariga emas, balki global mehnat bozori ehtiyojlariga ham mos bo'lishini ta'minlaydi. Natijada bitiruvchilar uchun nafaqat mamlakatda, balki xorijda ham munosib ish topish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarning joriy etilishi ta'lim



**2026/2027-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari negizida "Kasblar shaharchalari" tashkil etilmoqda.**

sifatini oshirib, kasbiy tayyorgarlik darajasini yangi bosqichga olib chiqadi. Bugun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi bilan hamkorlik o'rnatilgan bo'lib, xorijiy mamlakatlarining ish beruvchi korxonalaridagi aktual bo'sh ish o'rinlari soni, shuningdek, mutaxassislarga qo'yiladigan talablar bo'yicha to'liq ma'lumotlar Kasbiy ta'lim agentligiga taqdim etilmoqda. Shu orqali o'quv dasturlari nafaqat milliy, balki xalqaro mehnat bozori standartlariga moslashtirilmoqda. Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlik doirasida respublikamiz bo'yicha yetakchi 125 korxon va tashkilot hamda davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlar uyushmalari bilan texnikumlarda dual ta'lim tizimini joriy etish ishlari yo'lga qo'yilgan. Mazkur hamkorlik doirasida o'quvchilar amaliyotini tashkil etish, bitiruvchilar bandligini ta'minlash, texnikumlardagi ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malakasini oshirish kabi muhim yo'nalishlarda ishlar bajarilmoqda. Shu tariqa o'quvchilar amaliy ko'nikmalarni egallab, bitiruvchilar ish bozorida o'z o'rnini topadi, texnikumlar esa malakali kadr tayyorlashda samarali markazga aylanadi.

Ta'lim dasturlarini yangilash masalasi tizimning yana bir muhim yo'nalishidir. Prezidentimizning 2025-yil 23-oktyabrda

"Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2026-yilda 60 ta, 2027-yilda 150 ta, 2028-yilda esa qolgan barcha kasbiy ta'lim dasturlari kasbiy standartlar va xalqaro ta'lim dasturlari asosida yangilanishi belgilandi. Bu esa o'quv jarayonini nafaqat milliy, balki global mehnat bozori talablariga moslashtirishni ta'minlaydi. Hozir esa ichki va tashqi mehnat bozoridagi kasblar tahlil qilinib, ular orasidan talab eng yuqorilari tanlab olindi. Kasblar bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayonida rivojlangan davlatlarning kompetensiyaga asoslangan ta'lim standartlari



Italiya, Germaniya, Belarus, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasiga asoslangan kurslarda nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlangan holda malaka oshirdi. Bundan tashqari, eng yaxshi natija ko'rsatgan 50 nafar ishlab chiqarish ta'limi ustasi, umumba'lim va maxsus fan o'qituvchilari malakasini oshirish uchun xorijga yuborish imkoniyati yaratildi.

### Ayollar ulushi qanday?

Hozir respublikamiz bo'yab 595 ta kasbiy ta'lim tashkilotida 438 mingga yaqin o'quvchi 329 kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim olmoqda. Xususan, ularning 192 ming 185 nafari xotin-qizlardir. 2025-2026-o'quv yili uchun tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida 108 ming 686 ayol-qiz o'qish uchun kasbiy ta'lim tashkilotlariga qabul qilindi. Shuningdek, 284 kasbiy ta'lim tashkilotida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 75 kasb bo'yicha 25 ming 721 yosh va ishsiz aholiga qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Tinglovchilardan 15 ming 772 nafari ayol-qizlardir. Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish maqsadida 495 kasbiy ta'lim tashkilotida xorijiy til kurslari ochilgan. Hozir 8063 o'quvchi turli tillarni o'rganmoqda. 2024/2025-o'quv yilida texnikumlarning qurilish, transport, kommunal, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha 790 ayol-qiz davlat granti asosida ta'lim olib, xarajati to'liq davlat hisobidan qoplandi. Shu bilan birga, "prof-emis.edu.uz" platformasi orqali 859 ayol-qiz axborot texnologiyalari sohasidagi qisqa muddatli kurslarda o'qitildi. Ushbu kurslarda jami 2949 ayol o'qitilgan va o'qish yakunida ularga davlat namunasidagi sertifikatlar berilgan.

### Raqamlashtirish — davr talabi

Mamlakatimizdagi yetakchi tashkilotlar bilan hamkorlikda kasbiy standartlar va xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'quv dasturlarini yangilash ishlari davom etmoqda. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Janubiy Koreyaning ilg'or ta'lim dasturlari joriy etilmoqda. Natijada mehnat bozorida ayni vaqtda talab yuqori bo'lgan 60 ta kasb ro'yxati shakllantirildi. Ushbu ro'yxat nafaqat soha ehtiyojlarini, balki kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ham inobatga olgan holda tuzildi. Bu esa tayyorlanayotgan kadrlar raqobatchilikni sezilarli darajada oshiradi.

Kasbiy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish va yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash borasidagi yana bir muhim qadam tizimni raqamlashtirish bo'ldi. Raqamlashgan tizimning birinchi afzalligi vaqt va resurslarni tejashda namoyon bo'lmoqda. Endi ma'lumotlarni qog'oz shaklida yuritish, qog'olda hisob-kitob qilish va murakkab hisobotlarni tayyorlashga sarflanadigan vaqt qisqardi. Shu bilan birga, inson omili ishtiroki kamayib, qarorlar adolati va asosli qabul qilimolandi. Kelgusida esa raqamlashtirish imkoniyati yanada kengayib, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, mehnat bozoridagi tendensiyalarini oldindan baholash, qaysi kasblarga talab oshishi yoki kamayishini prognoz qilish imkoniyatlari yaratilishi ham rejalashtirilgan.

### "Kasblar shaharchasi" — yoshlarga imkoniyat

2026/2027-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari negizida "Kasblar shaharchalari" tashkil etilmoqda. Ushbu tashabbus maktab o'quvchilarini qurilish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va "yashil" energetika kabi zamonaviy kasblarga erta bosqichda yo'naltirish imkonini beradi.

"Kasblar shaharchalari" doirasida o'quvchilar uchun amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalar va interfaol sinovlar tashkil etilib, ular kasblar bilan bevosita tanishish, o'z qiziqish va moyilligini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur tizimni qo'llab-quvvatlash maqsadida huddudlarda 24 ta malakani baholash markazini tashkil etish, dolzarb kasblar bo'yicha sertifikatlash amaliyotini joriy etish ham ko'zda tutilgan. Aholining ushbu xizmatlardan foydalanishi vaucher tizimi orqali qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari, "Kasbiy rivojlanish platformasi" orqali 100 dan ortiq kasb bo'yicha mustaqil ta'lim olish, bilim va ko'nikmalarni baholash talab sertifikat olish imkoniyati yaratilmoqda.

Yangi rivojlanish bosqichidagi kasbiy ta'lim tizimi oldidagi strategik vazifalar aniq belgilangan. Ustuvor yo'nalishlar dual ta'lim ulushini keskin oshirish, qisqa muddatli kasbga o'qitish tizimini kengaytirish, "yashil" iqtisodiyot va raqamli kasblar ulushini ko'paytirish, hududiy ixtisoslashuv asosida o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash hamda mehnat bozori ehtiyojlarini real vaqt rejimida monitoring qilishdan iborat. Kasbiy ta'lim tizimining asosiy manbasi bo'lgan texnikumlarni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish uchun keng ko'lami islohotlar, ilgari surilayotgan tashabbuslar doirasida 9-sinf bitiruvchilari fanlar va kasbiy qiziqishlarga qarab saralab olinsa, oliygohlarga kirish istagi bo'lmagan yoshlar texnikumlarga yo'naltiriladi. Umuman olganda, kasbiy ta'lim endi faqat bilim beruvchi soha emas, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va mehnat bozorining sifatli rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega tizimga aylangan. Izchil va maqsadli chora-tadbirlarni davom ettirish, sohaviyati yoshlarni ish bilan ta'minlash hamda mamlakat kelajagi uchun zarur kadrlarni tayyorlash bizning asosiy vazifamiz bo'lib qoladi.

Roppa-rosa 10 yil oldin ilmiy tadqiqotlar yuzasidan Yaponiyaga borganimda professor Eguchi Kenji bilan uchrashish nasib etdi. U ilgari "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivaliga faxriy mehmon sifatida Samarqandga kelganida boshlangan do'stligimiz bu safargi diyorlashuvga mustahkam ko'priki bo'ldi. U meni Tokio milliy muzeyiga olib bordi. Ko'plab eksponatlar, xususan, musiqa asboblari orasida shisha ortida turgan bir kiyim diqqatimni tortdi. Bu "haori" — yaponlarning an'anaviy ustki kiyimi edi. Bir zum to'xtab qoldim. Shisha ortida turgan bo'lsa-da, ko'z oldimda xuddi o'zbek milliy choponi turgandek edi. Bichimi-yu qaddi, naqshi — barchasi o'sha-o'sha. Faqat nomi boshqa.



Shomurod MUSTAFOYEV,  
pedagogika fanlari doktori

Men bu haqda professor Eguchiga aytdim. U kulib qo'ydi-da, bunday dedi: "Bu tasodif emas. Buyuk ipak yo'li ikki xalqni nafaqat savdo-sotiq, balki madaniyat orqali ham chambarchas bog'lagan". O'sha lahzada ko'nglimda uzoq yillardan buyon shakllanib kelayotgan bir fikr yanada bayroqlanib qoldi. Yaponlardan o'rganamiz deb yurgan qadriyatlarimiz ko'pchiligi aslida o'zimizda ham bo'lgan, ammo biz ularni vaqt hukmiga topshirib, e'tiborsiz qoldirganmiz. Yaponlar esa bu merosni ehtiyojkorlik bilan asrab-avaylab, zamon talablariga moslagan holda hayotning o'zagiga singdirgan.

Bu o'xshashlik nafaqat buyumlarda, balki odamlarning xatti-harakatlarida ham yaqqol ko'zga tashlandi. O'sha safarda o'g'lim Murod bilan birga edik. Tokio ko'chalari kechib yurgan kunlarimizning birida poydalar yo'lagidagi svetoforning qizil chirog'i yonib turgan joydan o'tishimizga to'g'ri keldi. Yo'l bo'lmab, birorta ham mashina ko'rinmasdi. "Sekin o'tavermizmi?" deb so'radim. Murod

Uyda bo'lamizmi, ishda, dars jarayonidami yoki ko'chada yurgan paytimizdami, farqi yo'q — har lahzada kimningdir farzandiga o'zimizning kundalik xatti-harakatlarimiz bilan tarbiya berib boramiz. Biz buni xoh ongli ravishda bilaylik, xoh bilmaylik, baribir mudom shu jarayonning markazida bo'lamiz.



Kamolot kaliti

## "BOLALAR QARAB TURIBDI"

### Tarbiyaning ildizi har jihatdan o'rnak bo'lishdir

to'xtadi. Yo'lining narigi betida bir necha yapon bolalari yashil chiroq yonishini jim kutib turardi. "Yo'q, — dedi o'g'lim, — bolalar qarab turibdi. Ularga yomon namuna bo'lamiz". Ikkalamiz ham yashil chiroq yonguncha kutib turdik. Men o'xshashlikni ko'rdim: qoidalariga rioya qilish jazo qo'ruvidan emas, balki o'zini jamiyatning ajralmas bir bo'lagi deb his qiladigan insonning tabiiy ehtiyojidan kelib chiqishi kerak. Yaponlar buni "kata" — shakl va tartibga bo'lgan chuqur, ongli hurmat deb ataydi. Biz, o'zbeklar esa bu tuyg'uni azaldan bitta so'z bilan ifodalab kelganmiz: odob. Ikki xalq, ikki til, ammo ma'no va ildiz bir.

O'sha kuni muzeydan chiqqach, bir fikr butun xayolimni band etdi: biz bugun zamonaviy tushuncha deb atayotgan ko'plab g'oyalarda tariximizda allaqachon mavjud bo'lgan ekan-ku! Faqatgina ularni boshqa nomlar bilan atab, boshqacha til bilan ifodalab ekanmiz, xolos. Bugun tarbiya va taraqqiyotga oid bahslarda ko'p takrorlanayotgan kognitiv kapitalizm tushunchasi ham shular jumlasidan.



undani har oy daromad qilsangiz, endi bu boylik kapitalga aylangan bo'ladi. Xuddi shuningdek, bo'sh turgan kvartirangiz shunchaki boylik bo'lsa, uni ijaraga berib foyda ko'rishingiz kapitaldir. Asosiy farq shundaki, kapital o'zini o'zi ko'paytiradi, hatto tinch yotgan holatida ham sizga qo'shimcha qiymat hosil qilib bera oladi. Ana endi o'rinli bir savol tug'iladi: sizning bilimingiz qaysi toifadan o'rin olgan?

Agar o'zlashtirilgan bilim kapitalga aylansin, uning qadr-qimmatini nimada qoladi? O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida bunday o'tkir va keskin bir savol bor: "Bu kimsa nihoyatda ilmiy, nihoyatda donishmand, ammo o'zi kambag'al desangiz, "Aqli va bilimdon bo'lsa, nega boy bo'lmagan?" deb so'raydilar.

Yaponiyada guvohi bo'lganim o'sha manzara xotirama umrbod muhrlanib qoldi va menga juda ko'p narsani tushuntirib

berdi. Yaponiyaning haqiqiy buyukligi uning zamonaviy texnologiyalari yoki qudratli iqtisodiyotida emas, balki svetofor yonida yashil chiroq yonishini sabr bilan, jim kutib turgan o'sha jajji bolalarda mujassam edi. Haqiqiy tarbiya yillar davomida qatlam ustiga qatlam bo'lib yig'iladi va bora-bora insonning tabiatiga singib ketadi. Shunda inson shunchaki qoidaga amal qilish kerakligi uchun emas, balki ichki ma'naviyat shuni taqozo etgani uchun ham har doim to'g'ri yo'lni tanlaydi. Kumulyativ tarbiyaning pirovard va yakuniy maqsadi ham aynan shundan iborat — insonni shunchaki nimanidir bilishga emas, balki qandaydir shaxs bo'lib yetishishga undaydi. Bu zamonaviy iqtisodiyot tilida "innovatsion inson kapitali" deb ataladi.

#### Jozibador tushuncha

Bilim va tarbiyaning o'zaro mukammal uyg'unligi bugungi kunda yangicha nom oldi

— innovatsion inson kapitali. Bu jozibador tushuncha zamirida juda oddiy bir ta'rif yotadi: u sifatlari ta'lim olgan, doim ijodkor va tashabbuskor, har qanday yangilikka ochiq, nafaqat o'zidagi mavjud bilimlarni amaliyotda qo'llay oladigan, balki butunlay yangi moddiy va ma'naviy qiymat yaratadigan insondir.

O'zbekiston 2030-yilga borib Global innovatsiyalar indeks reytingida dunyoning 50 ta eng ilg'or mamlakatlari safiga kirishdek ulkan maqsadni o'z oldiga belgilab olgan. Bunday marraga erishish yo'lidagi asosiy tamol toshi har tomonlama puxta ta'lim ko'rgan, tashabbuskor va tom ma'nodagi ijodkor yangi avlodni yetishtirishdir. G'arb mamlakatlari bu ta'lim tizimini "Lifelong learning" — ya'ni umr bo'yi uzluksiz o'rganish deb atashadi. Biroq e'tiborsiz shundaki, bu teran g'oyaning asl ruhi bizning madaniyatimizda va qonimizda allaqachon mavjud bo'lgan: Hazrat Navoiy yetti asr muqaddam aynan mana shu narsa haqida yozib

qoldirgan. Biz bugun shunchaki o'zimiz unutil qo'ygan o'sha bebaho tushunchani zamonaviy tilda qaytadan kashf etaymiz, xolos.

\*\*\*

Ushbu maqolani yozib tugatgach, xayolim beixtiyor yana o'sha Tokio muzeyi zallariga qaytdi. Shisha ortida mahobat bilan osilib turgan "haori" xuddi o'zbek milliy choponini ko'z oldimda yana jonlantirgandek bo'ldi — go'yoki u musharak bir tarixning daryoning ikki qirg'og'ida tushib qolgan izlariga o'xshardi. Faqat birgina qadriyat ikki xil xalqda, ikki xil nom bilan yashab kelgan.

Yaponlar milliy qadriyatlarini — qat'iy intizom, yuksak mas'uliyat, cheksiz sabr, ilm-fanga bo'lgan chuqur muhabbat va jamiyatga nisbatan hurmat ruhini avlodlarni avlodga yetkazib, asrab kelmog'ida va buni kundalik hayotining mutlaqo ajralmas bir qismiga aylantirgan. Bunday qadriyatlar ularning ta'lim tizimida ham, ko'chadagi odatiy xulq-atvorida ham, kundalik oddiy insoniy munosabatlarida ham birdek yaqqol ifodasini topadi.

Aslida, bunday go'zal fazilatlar xalqimizga ham aslo begona emas. Axir bizning Navoiydek mutafakkirimiz bor. Beruniy va Ibn Sinoдек allomalarimiz, Mirzo Ulug'bekdek buyuk olimlarimiz o'tgan. Xalqimiz ham asrlar o'sha ilmiy eng oliy qadriyat sifatida ulug'lab kelgan, halol mehnat qilishni sharaf deb bilgan va go'zal odob-axloqni hayotining ajralmas tamoyiliga aylantirgan.

\*\*\*

O'g'lim Murod o'sha kuni svetofor oldida qisqagina bir gap aytdi: "Bolalar qarab turibdi". Men o'shanda juda oddiy tuyulgan ushbu qisqa jumla qanchalik teran va chuqur ma'no yashirganini to'laqonli anglab yetmagan ekanman. Ammo bu so'zlar xotiramda bir umrga o'chmas bo'lib muhrlanib qoldi. Chunki tarbiya jarayoni faqatgina sinfxona yoki maktab devorlari ichida cheklanib qolmaydi. U ko'chada ham, gavjum bozorda ham, mehmonlar davrasida ham, hatto oddiygina svetofor yonida ham muttasil davom etaveradi. Uyda bo'lamizmi, ishda, dars jarayonidami yoki ko'chada yurgan paytimizdami, farqi yo'q — har lahzada kimningdir farzandiga o'zimizning kundalik xatti-harakatlarimiz bilan tarbiya berib boramiz. Biz buni xoh ongli ravishda bilaylik, xoh bilmaylik, baribir mudom shu jarayonning markazida bo'lamiz.

"Yapon ma'jizasi" degan tushuncha biz uchun mutlaqo begona yoxud imkonisiz narsa emas — u o'zimizning bebaho tarixiy merosimiz hisoblangan, o'z vaqtida otab-avaylangan va butun ictimoiy bilan hayotga tatbiq etilgan azaliy qadriyatlarimizning amaliy bir ko'rinishidir. Xuddi shunday barqaror taraqqiyotni biz ham bevosita o'z qo'limiz, mehnatimiz va aql-zakovatimiz bilan bunyod etishga to'la qodirmiz. Buning uchun esa, eng avvalo, tarixiy ildizlarimizni yanada chuqurroq qadrlashimiz va qonimizda allaqachon mavjud bo'lgan: Hazrat Navoiy yetti asr muqaddam aynan mana shu narsa haqida yozib

#### To'ydan keyingi mashmasha

Ismat akani o'y bosdi. Bunchalik bo'ladi deb o'ylamagandi. Ayoli sanab o'tgan sarpolarning oxirgilari qulog'iga ham kirmadi. O'y lab gapiryaptimi o'zi? Nima emish, odamlar gap qilarmish. Xo'p, bularning bari tekin kelmaydiku? Bir chetga o'tirib, xarajatni chamaladi. Eh-he, bu sarposuruqning o'ziga ancha pul ketadiku. Hali elga osh berish kerak, dasturxon tuzash... Hisobdan adashib ham ketdi. Qadimgilar "Qiz chiqarganga qirg' yil tegma", deb bejiz aytmagan ekan. To'rt qiz bor. Hali to'ng'ichini uzatishda shuncha bosh og'rig'i bo'lsa, kenja qiziga borib ado bo'ladi, chog'i.

Endigina o'zini band qilib, og'zi oshga yetgandi. Ancha yil ishsiz yurib, biri ikki bo'lmadi. Oxiri mahalla faollari ko'maklashib, tomorqasini ishga soldi. Shuncha yildan buyon hovlisidagi xazinani anglamagan ekan. Astoydil mehnat qilgan edi, daromad ham kela boshladi. Mana, uch yildirki, ellik-oltmish million so'mdan foyda olyapti. Otasi qurib bergan uy eski holicha yotgandi. Uni ta'mirlab oldi, eshik-derazalarini yangiladi.

Turmushi ancha o'zgardi. Bu o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Peshana teri evaziga, albatta. Ammo shuncha mehnat ortidan kelgan mablag'ni bir kunda sovrishga yuragi dosh bermasdi. Yana deng, xotini bozorda topilmaydigan latta-puttalarni aytib, holi-joniga qo'ymagani yomon bo'ldi. Qizining injiqliklari esa barchasidan oshib tushdi. Tanlagan narsasini olib bermay iloji qancha? Yana narxi otning kallasiidek buyumlar...

## SEP O'RNIGA KITOB...



### Oramizdagi odamlar

— Bunisi ammajonisidan.  
— Ana, xolajonlari ham kelmog'ida. To'lib-toshganini ko'ring...  
— Yangalari, qani sizlar? Kelin bilan tanishib ketmaysizlarmi? Kelinglar...  
— Ko'p yashang. Qo'shilariga bir salom...

Ismat aka shuncha yildan buyon to'y-tomoshaga yurib, "kelinsalom" deganlarini ko'rmagan ekan. Qizini uzatib, kuyov tomonga bordi. To'yning o'rtasida ayollar "kelinsalom"ni boshlab qoldi. U bir chetda kuzatib o'tirdi. Kayvoniy ayol so'zni so'zga ulab, chechanlik bilan "kelinsalom" aytardi.

Ayollar qo'lida mato ushlagancha kelib, kelin bilan ko'rishardi. Ajablanarlisi, kelinning yonida turgan Ismat akaning yangisi ularga javoban yana bir matoni utqazib yuborardi. Go'yo ikki tomon tovar ayiribshayotganga o'xshardi. Behuda sarflanayotgan va xarajatlardan uning ko'ngli xijil bo'ldi. Shu dabdaba nima uchun qilayotganini tushunib yetolmadi.

Ertasi kuni Ismat aka to'y charchog'ini chiqarish ilinjida boshini yostiqqo qo'yishi bilan darvoza taqillab qoldi. Erinibgina tashqariga chiqdi. To'yga ishlatilgan buyumlarning ijarasidan qolgan qarzni so'rab

kelishgan ekan. Bor-budini yig'ib berib yubordi. Yarim soat o'tmay, yana biri qarzini so'rab keldi. Bu holat kechga qadar ikki-uch bor takrorlandi. Tun yarmiga borib Ismat akaning qon bosimi oshgach, "tez yordam" mashinasi shifoxonaga olib ketdi.

#### Taqdirlarni bog'lagan xazina

Yuqoridagi holat badiiy to'qima emas, ayni kunlarda bo'lib o'tgan real voqea. Afsuski, bunday hodisa birgina Ismat akaning xonadonida emas, deyarli ko'pchilikning uyida kuzatilmoqda. Dabdaba ortsa o'tadiki, kamaygani yo'q. Kimo'zarga qilinayotgan sarpolaru isrof etilayotgan oziq-ovqatni hisoblab, oxiriga yetish mushkul. Lekin yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda andijonlik qizning vohaga kelin bo'lib tushgani, yosh oilaning to'yi ixcham o'tgani va sep o'mida faqat kitob kelganini eshitib, rosti, ishonmadik. Shu sabab vodiylik qiz kelin bo'lib tushgan xonadonni izlab bordik.

Ko'kdala tumanidagi Sho'rbozor qishlog'i viloyat markazidan ancha o'lisda joylashgan. Vodiyan esa u yergacha ancha chaqirim yo'l bosish kerak. Ammo taqdir bitigida Nasiba Ibrohimovanning shu manzilga kelin bo'lishi yozilgan ekan. U talablik davrida shu qishloqlik Mirjalol Mahmarahimov bilan tanishib qoladi. Yoshlar bir-biriga ko'ngil qo'yadi. Bu bejiz emasdi. Ular turli viloyatda voyaga yetgan bo'lsa-da, ikkisining ham bolalikdan kitobga mehri baland. Aynan mana shu kitobsevarlik ularning taqdirini o'zaro bog'lagan bo'lsa, ajabmas.

Natijada ota-onalarning roziligi bilan to'y bo'ldi. Bu to'y odatdagidan boshqacha o'tdi: ixcham va kamxarajat. Kelinning sepinu ko'rishga qiziqqan yangalar hayratda qoldi. Nasiba boshqalarga o'xshab bir talay mato, kiyim-kechak bilan emas, balki kitoblar bilan keldi. U yangi uyiga javon o'rnatirib, sepinu tomosha qilish istagidagilarga o'zi keltirgan adabiyotlarni ko'rsatdi. Buni ko'rib, kimdir havas qildi, kimdir esa hayratdan yoqa ushlagancha qoldi.

— Turmush o'rtog'im bilan tabiatimiz o'xshashligi — ikkimizning ham kitobga qiziqishimizda, — deydi Nasiba Ibrohimova. — Men 7-sinfligimdan badiiy adabiyotlarni o'qib kelaman. O'shandan buyon o'qigan har bir kitobimni asrab qo'yaman. Turmushga chiqqunimga qadar javonimdagi adabiyotlar soni 800 tadan oshibdi. Yaxshi ko'rgan buyumlarimni tashlab ketolmadim. Agar qaynona-qaynotam rozilik bildirs, sep o'miga kitoblarimni olib kelishni maqsad qilgandim. Ularga bu fikrim ma'qul keldi. Bundan rosa quvonib ketdim. Kelinlik uchun eng zarur buyumlardan tashqari, faqat mana shu boyliklarimni olib keldim. Bilsam, bu xonadon egalari ham oilaviy kitobxon ekan. Turmush o'rtog'im achagina kitob o'qib, yig'ib qo'ygan. Hozir javonimiz kitoblarga liq to'lib turibdi.

Nasibaxonning tashabbusi bilan Sho'rbozor qishlog'ida uy-kutubxona ochildi. Qishloq aholisi bu imkoniyatdan mamnun bo'lib, kelin keltirgan kitoblarni mutlaqo qilmog'ida. Ayniqsa, yoshlar bundan juda xursand. Qaynonasi Mehri opa esa

farzandlarining bir-birini tushunib, ahil-inoq yashayotganidan baxtiyor.

— O'zim tibbiyot xodimi bo'lsam-da, ko'limdan kitob tushmaydi, — deydi Mehri Diyorova. — O'g'limni uylantirish taraddudini boshlaganimda, u vodiya sovcilikka borishini aytib qoldi. Andijonga bordim. Bo'lajak qudalarimiz ham o'qimishli kishilar ekan. Shu bois, subhatimiz tez qovushdi. To'yni o'tkazishda kamxarajat yo'lni tanlashni taklif qilishdi. Bu bizga ma'qul bo'ldi. Chunki o'zimiz ham isrofgarchilikni yomon ko'ramiz. Bir kunlik to'yni deb behuda sarf-xarajat qilishning oqibati yaxshi bo'lmaydi. Gohida kam ta'minlangan oilalarning bor-budini sotib to'y qilyotganini ko'rib, rosa achinib ketaman. Ertasi kuni esa holi voy bo'lib yuradi. "Odamlar nima deydi?" deya o'zimizni o'zimiz qinyaymiz. Ertaga nochor ahvolda qolsak, birotasi bir so'm berolmaslik aniq. To'y kuni kelinlik bir sandiq kitob bilan keldi. Aslida, bundan ortiq boylik yo'q. Qisqartirilgan sarf-xarajat o'miga ham badiiy adabiyotlar olib kelishdi. Bugun bu kitoblardan butun qishloq ahli foydalanmoqda.

Nasibaxonning bu tashabbusini bugun ko'pchilik faollar qo'llab-quvvatlamog'ida. Yosh oila biriga harakat qilib, qishloqda jamoat kutubxonasini barpo etish niyatida yuribdi. Demak, vodiylik kelinning taklifi bilan tez orada Sho'rbozorda yangi kutubxona ish boshlaydi. Uni kitoblar bilan boyitish esa ular uchun muammo emas. Bundan tashqari, qishloq faollari ham qarab turmoqchi ekan, har biri imkoni yetganicha kitob sovg'a qilish taklifini bildirmog'ida.

Yana bir gap. Nasibaxonning aytishicha, agar bir to'y xarajatlarning hech bo'lmaganda ellik foizi iqtisod qilib qolsin, buning evaziga o'sha huddud mo'jazzina kutubxona barpo etish mumkin ekan.

Akbar G'OZIYEV,  
jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.  
30646 nusxada bosildi.  
Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov  
Musahhir: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy